

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

***Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti***

***TARIX fakulteti
ARXELOGIYA kafedrasini***

***TEMIR VA ANTIK DAVRDA XORAZM VOXASI
SHAXARLARINING MODDIY VA MANAVIY
MADANIYATI.***

***5120400-Arxeologiya ta'lim yo'nalishi bakalavr akademik darajasini olish
uchun***

Malakaviy bitiruv ishi

***Bajardi: Arxeologiya yo'nalishi 406-guruh talabasi
Baxodirov Zafarjon Dilshod o'g'li***

Ilmiy rahbar: dots.Jo'raqulova Dilfuza Mavlonovna.

*Malakaviy bitiruv ishi Arxeologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2016-yil
_____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.
(Bayonnoma № __)*

***Fakultet dekani:
Kafedra mudiri:***

***dost.Xolmatov N.O`
dots.Jo'raqulova D.M.***

*Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016-yil _____dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (Bayonnoma № __).*

YaDAK raisi:

YaDAK a'zolari:

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	3-5
I.BOB. XORAZMDA ARXAIK VA ANTIK DAVR SHAHARLARINING MANBALARDA AKS ETISHI VA O'RGANILISHI TARIXI.....	6-37
I.1. Xorazm arxaik va antik davr shaharlarining shakllanish asoslari va shart-sharoitlari.....	6-22
I.2. Xorazm arxaik va antik davr shaharlarining manbalarda aks etishi va o'rganilishi tarixi.....	22-37
II.BOB. XORAZMDA ARXAIK VA ANTIK DAVLATCHILIK ASOSLARINING SHAKLLANISHI VA UNDA SHAHAR MADANIYATINING O'RNI.....	38-55
II.1. Xorazmda ilk davlatchilik an'alarining vujudga kelishi muammosi va arxaik davr shaharlarining moddiy madaniyati.....	38-45
II.2. Antik davr Xorazm shaharlari va ularning davlatchilik an'analari rivojidadagi o'rni hamda ularning moddiy-ma'naviy madaniyati.....	45-55
XULOSA.....	56-59
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati.	60-62

Kirish.

O'zbekiston mustakillikka erishgach, jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi bo'lgan vatanimiz tarixini ayniqsa, o'zbek davlatchilik tarixini o'rganish imkoniyatlari kengayishi bilan birga uni imkonini yaratish, unga haqqoniy baho berish nihoyatda muhim vazifaga aylandi. Jahon xalqlari tarixidan ma'lumki, muayyan hududda kechgan eng dastlabki siyosiy jarayonlarda, davlatchilikning shakllanishida, qabila va elatlarning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotida shaharlarning o'rni juda katta bo'lganligi to'la-to'kis tasdiqlangan haqiqatdir. Shuning uchun shaharlar tarixi, shahar madaniyatining shakllanishi tarixi hamma vaqt tarixchi tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib, eng dolzarb muammo sifatida unga qiziqish katta bo'lgan.

Xorazmning arxaik va antik davr shaharlari tarixi va ularning taraqqiyoti masalalari haqida ko'pgina tarixchi olimlar izlanishlar olib borganlar. Ammo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirda mavjud arxeologik yodgorliklar, moddiy va ashayoviy, yozma manbalar bizning mavzumizni to'laqonli o'rganish imkonini bermaydi.

Tarixiy adabiyotlar va yozma manbalardagi ma'lumotlarning mazmun va mohiyatiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Sobiq Sovet tuzumi davrida chop qilingan tarixiy adabiyotlar (S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, M. A. Itina, A. V. Vinogradov, B. I. Andrianov, Ye. Ye. Nerazik, M. G. Vorobyeva, Yu. A. Rapoport, Yu. P. Manilov, N. N. Vakturskaya, V. N. Yagodin, M. M. Mambetullayev, G'. K. Xodjaniyazov, A.. Sagdullayev).
2. Mustaqillik yillarida voha tarixiga oid tarixiy adabiyotlar, maqola va tezislardagi ma'lumotlar (V. N. Yagodin, M. M. Mambetullayev, G'. K. Xodjaniyazov, M. Turabekov, A. Sagdullayev, A. Asqarov, X. Matyaqubov, S. Baratov).

Xorazmning arxaik va antik davrlardagi yirik shaharlari, ularning moddiy madaniyati tarixini arxeologik va yozma manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash, aniqlash, umumlashtirish usullari asosida ilmiy o'rganish vazifasi qo'yildi. Mavzuni ilmiy o'rganish asosida hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonda amalga

oshirilayotgan bozor munosabatlarini shakllantirish borasidagi keng qamrovli ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan nazariy va amaliy xulosalarni chiqarishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning davriy chegaralari miloddan avvalgi VI asrdan – milodiy IV asrgacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi va u O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyatining ilk taraqqiy etgan davri hisoblanadi. Zero, bu asrlarda Xorazm shaharlari nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahon moddiy madaniyati tarixida ham katta ahamiyat kasb etganligi tanlangan mavzuni tadqiq etish uchun ushbu davriy chegarani belgilashni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari sifatida – Xorazmda ilk shaharlar taraqqiyoti va ularning davlatchilikning shakllanishidagi o'rnini o'rganish orqali tariximizni xolisona o'rganish, xalqimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni o'lkashunoslikdan puxta bilim va ko'nikmalariga ega qilish. Mazkur masalalar biz tanlagan mavzuning ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbligini asoslaydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda biz mazkur loyiha mavzusi va maqsadi sifatida Xorazmda davlatchilikning shakllanishida arxaik va antik davrlar shahar madaniyatining o'rni va rolini ochib berish muammosini tanladik. Zero, mazkur muammo haligacha keng miqyosda o'rganilmagan. Xorazm shaharlarining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy sharoitlarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirishda shaharlarning o'ziga xos uyushtiruvchi tarixini tadqiq qilib, har tomonlama haqqoniy yoritish muammosi qo'yiladi. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi muammolarni obyektiv ravishda yoritishga harakat qilinadi:

— Xorazm shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari yetilishidagi iqtisodiy va siyosiy omillarini aniqlash;

— Xorazm shaharlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish;

— Xorazm shaharlarining madaniy faoliyatini yozma va yangi arxeologik ma'lumotlar asosida haqqoniy yoritish;

— Xorazm shaharlarining Markaziy Osiyo madaniy hayotida tutgan o'rnini va moddiy madaniyat tarixi rivojiga qo'shgan xissasini ko'rsatish va hokazo.

Bitiruv malakaviy ish nazariy va metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari, maqolalari, fundamental asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq qarorlari, taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

Xorazm hududida XX asrning 30-yillaridan to 80-yillarigacha olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar hozircha Xorazmda shahar madaniyatining shakllanish tarixini to'la-to'kis ochib bera olmaydi. Shu bilan birga, bu tadqiqotlar davrida to'plangan moddiy va ma'naviy manbalarning o'zi ham haligacha to'laqonli o'rganilmaganligini afsus bilan qayd qilish lozim.

Bitiruv malakaviy ish manbalari. Mavzuning manbaviy asosini qadimgi Eron, yunon-rim manbalari tashkil etadi. XIX asr o'rtalaridan XX asr 30 – yillarigacha tarixchi, geograflar va sayyohlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar ham mavzuni ochib berishda qisman ahamiyatga ega hamda ular Xorazm ilk shaharlarining xo'jalik hayoti, o'lkada tutgan mavqeyi to'g'risida aniq tasavvurlarni shakllantirishga imkon bermaydi.

Xorazm arxaik va antik davr shaharlari tarixini arxeolog, geograf, topograf va tilshunos olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida to'plagan ma'lumotlari va ular chiqargan ilmiy xulosalar asosida o'rganish yuqori samara beradi. Shu jihatdan olganda, biz tanlagan mavzuning asosiy vazifasi mavzuga oid barcha manba va tadqiqotlarni chuqur o'rganish asosida yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish.

I – Bob. Xorazmda arxaik va antik davr shaharlarining manbalarda aks etishi va o'rganilishi tarixi.

I.1. Xorazm arxaik va antik davr shaharlarining shakllanish asoslari va shart-sharoitlari.

Janubiy Amudaryo xavzasida joylashgan Amirobod kanali atrofida juda ko'p manzillar topildi. Shu manzillarda biri Yakkaporson-2 atroficha o'rganildi. Manzilgoxning maydoni 250x150 m bo'lib, to'g'ribo'rchak shaklda, uy-joy komplekslari yarim yerto'la shaklida bo'lgan. Uy qurilishida ustun, novda, kamish, loy ishlatilgan. Bu manzildan 20 ga yaqin uy-joy xonalari topilgan¹. Manzil yaqinidan sug'orma dexqonchilik dalalari topilgan. Amudaryodan kanallar chikarilgan, Xajmi kichik va o'zunligi katta, chuqur bo'lmagan kannallardan suv kelgan. Kanal suvlari chetga chiqib ketmasligi uchun, uning chetlari dambalangan. Bu kanallarning qurilishi antik davr sug'orish inshootlarining taraqqiyotiga asos bo'ladi. Amirobodliklar o'troq hayot sari intilib dexqonchilik bilan shug'ulanganlar sari qadam tashlagan. Bu fikrni manzildan topilgan o'roq va don yong'ich toshmalari isbotlaydi. Amirobodliklar hali temirni o'zlashtirib ulgurmaganlar. Shu bilan birga Xorazm vohasining janubiy qismida xam bu tarixiy davrda insoniyat faoliyati davom etgan (Tuyamo'yin zonasi).

Shunday qilib, Xorazm vohasida yashagan qabilalarning hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar Akchadaryo xavzasida va Tuyamo'yin xududida olib borilgan arxeologik takikotlar natijasida olindi va bu materiallar neolit, bronza davriga oid bir qator tarixiy ilmiy – nazariy xulosalarni beradi. Demak, Akchadaryo xavzasida bronza davrida Tozabog'yop va Suvyorgan qabilalari yashaganlar. Tozabog'yopliklarda dexqonchilik ko'rtaklari ko'zga tashlangan bo'lsa-da, juda sodda holda edi. Xorazmda ibtidoiy sug'orilishning taraqqiyoti mil. avv. XI-X asrlarga borib taqaladi. Sug'orilishning yanada takomillashishi kachonkim kadimgi Xorasmiyalilar Xirot vodiysidan Amudaryo etaklariga kuchgan. Bronza davrida Janubiy Akchadaryo xavzasida yashagan aholi asosan

¹ (Итина 1963, 107-123 бетлар).

motiga- dekonchiligi bilan, asosan esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Amirobodliklarning hayotida sug'orma dexqonchilik tomon tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda manzillar bir necha uy xonalaridan iborat bo'lib, alohida mahalliy markazga ega (Yakkaporson-2). Amirobodliklar o'troq hayotga utib, dexqonchilik sari kadam quyishdi, ularning xo'jalik taraqqiyoti ibtidoiy shakl doirasidan chikaolmagan. Bu qabilalar hayotida mulkiy tabaqalanish jarayoni hali ko'zga tashlanmadi. Amirobodliklarda uy-joylarni rejalashtirish oddiy usulda olib borilgan bo'lib, me'moriy-topografik va qurilish bilimlari vujudga kelishining iqtisodiy – madaniy va texnik asoslari Amirabodliklarda vujudga kelishi uchun tegishli sharoit mavjud emas edi. Dexqonchilik borasida tubdan o'zgarishlarni yuz berishi uchun madaniy – xo'jalik bilimlar zaxirasi xam kamlik qilardi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida yashagan qabilalar Sirdaryoning quyi xavzasiga, Amudaryoning Sariqamish xavzasi bo'ylab ko'chmanchi-chorvachilik xo'jaligi bilan shug'ullanardi, ularning bir qismi Janubiy Daudan irmoqlari bo'ylab joylashgan edi. Ayniqsa Zao'ngo'z qumligida chorvachilikning rivojlanishi uchun qulay imkoniyat vujudga kelgan. Mana shu geografik kenglikda istikommat qiluvchi chorvador kabilalar madaniyati Quysisoy madaniyati deb nom oldi². Quysisoyliklar yerto'lalarda yashab, dexqonchilikni boxorirok lalmi va chorvachilik bilan shug'ullanardi. Shuning uchun Quysisoy manzili mudofaa tizimiga ega emas, xajmi uncha katta bo'lmagan(100 kv.m) uylarda yashaganlar. Quysisoy madaniyatining o'rgangan B.I.Vaynberg bu manzilda yashagan qabilalar mahalliy bo'lmasdan janubdan kelganligi to'g'risida fikr yuritadi, ammo Quysisoy qabilalari (Tumekkichidjik, Tarimкыуа-1) tomonidan qoldirilgan kabrlardagi ashyoviy dalillar ularni O'rta Osiyoning shimolida kadimdan yashab kelayotgan mahalliy aholi ekanligini tasdiqlaydi.³

Bizningcha xam Quysisoyliklarni Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Eron xududlaridan Sarikamish xavzasiga kelib joylashgan aholi emas balki, mahalliy aholi kolaversa ularni ko'plab tozabog'yoplikliklar bilan bog'lash haqiqatga yaqin

Вайнберг 1979,7-52 бетлар.

³ А.Аскарлов .Кадимги Хоразм тарихига оид бази бир масалалар.Узбекистон этнологияси: Янгича карашлар ва ёндашувлар.Илмий туплам. Тошкент 2004 76-84 бет

bo'lsa kerak. Bronza davri oxirida qabilalarning kanallar bo'ylab, yangi yerlarni o'zlashtirishi davom etgan. Bronza davrining oxiriga kelib, aholining bir kismi Amudaryoning o'ng soxilidan chorvaga kulay botkoklik suvlariga serob yashash uchun Sarikamish xavzasiga kelib qolgandir. Agar bu qabila janubiy Turkmanistondan kelib joylashgan takdirida me'morchilik, qurilish bilimlarini kullab, uy-joy qurilishini amalga oshirardi. Negaki, quyisoyliklarda ma'lum bir tizimga asoslangan muxandischilik, me'morchilik, qurilish bilimlari xo'jalik hayotida o'z o'rnini topgan emas. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichida Xorazmning unumdor yerlariga mil. avv.. VI asrdan boshlab me'morchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan Xorasmiyalilar kelib urnashgach dexkonchilik madaniyatida tub o'zgarishlar yuz berdi (Ko'zaliqir). Ko'zaliqir va Kalaliqir yodgorliklari shundan keyin paydo bo'ldi. Ularda shahar qurilishi va mudofa tizimi sohasmda tajriba katta edi. Ushbu tarixiy jarayonlar bilan bog'liq yozma manbalarni I.V. Pyankov umumlashtirdi. Gekatey ma'lumotiga karaganda mil. avv.. VI asr oxirida xorazmiylar Xindistonga boradigan Kaspiy buyi yuliga yaqin joyda, ya'ni parfiyaning sharqida joylashgan. I.V. Pyankov bu ma'lumotdan xulosa chikarib "xorazmiylar xududida Tadjan-Gerirud vodiysi va Turkmanistonning sharqiy qismini egallagan" deb yozadi. Xorazm xududida bu davrda sak-massaget qabilalarining kuchayishi natijasida harbiy ittifoq vujudga kelib, o'z xududlarini kengaytirib borgan bo'lishi mumkin. Chunki Gerodot o'z asarida Janubiy Turkmanistondagi Akes vodiysi Axmoniylar kelgo'nga kadar Xorasmiylarga qaraganligini ko'rsatib otgan⁴. I. Vaynberg Quyisoyliklarni qadimiy xorazmiylarga qiritib, mil. avv.. VII asr boshlarida Girkoniyanning sharqida, g'arbda Areyagacha bo'lgan xududda joylashgan degan fikrni olga suradi. Xorasmiylar Quyi Amudaryo xududlariga kelib, joylashgan, keyinchalik bu xudud yozma manbalarda "xorasmiylar" tushunchasi uchraydi, bu esa shu tarixiy nomning asrlar osha bizgacha yetib kelishiga zamin bo'ldi. Yukorida bayon etilgan tarixiy dalillardan xulosa chikarib mil. av. V-II ming yilliklarda Amudaryoning quyi xavzasida quyidagi tarixiy –madaniy manzarani ko'zlatish mumkin.

⁴ .Геродот, Тарих, VI, 20, Я.Фуломов 1959, 70-бет, Вайнберг 1979, 49-бет.

Xorazm vohasida bu tarixiy davrda shahar madaniyati vujudga kelmagan holda uning paydo bo'lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy omillar paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish tobora ko'ptarmokliligi xarakterini olib boshlagan. Okibat natijada birinchi ijtimoiy mehnat taksimotini yuz berishiga zamin yaratib beradi. Chorvador xujaligida kushimcha maxsulot va o'nga bo'lgan talabni kuchaytirib bordi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy munosabatlarni rivojlantirgan. Qadimgi jamiyat va undagi ishlab chiqarish usuli, qabilalarda mehnat mazmuni xo'jalik ishlarining tashqil etilishidagi tashqilotchilik, harbiy, diniy sohada mafquraviy kuchning kelib chiqishiga va mustaqil, bir-biriga qarama-qarshi jamoalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy tabaqalanishning kelib chiqishiga, shaxsiy karamlik va mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi uchun sharoit yaratiladi. Ko'p tarmokli mehnatning paydo bo'lishi boshkarilishning turli shakllarini, turli shaklda manzilgoxlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi uchun muhim shart-sharoitlardan biri, xo'jalik ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida mehnatning taksimotidir. Ishlab chiqarish darajasi va mehnat taksimoti urbanizasiyaning shaqillanishini aniqlaydi. Manzilgox aholisining o'sishi, mehnatning ixtisoslashuvi, xo'jalik faoliyatining mo'taxassislashishi shaharlarning vujudga kelishining shart –sharoitlaridan biri. Shahar madaniyati shakllanishining iqtisodiy manbasi ikkinchi yirik mehnat taksimotidir, ya'ni xunarmandchilikning dexqonchilikdan ajralib chiqishi edi. Buning natijasida, ishlab chiqarishda ikki yirik tarmokning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish xarakteri va uning yunalishining o'zgarishiga sababchi bo'ldi va ishlab chiqarish xujaligida qarama-qarshi bo'lgan iqtisodiy soha vujudga keldi. Ilk shaharlarning vujudga kelishida turli obyektiv va subyektiv sharoitlar mavjud (jo'g'rofik o'rin, iklim sharoit, savdo yuli yaqinligi, sug'orish uchun kulayligi, aholi soni ko'pligi, mudofaa uchun kulaylik, harbiy san'atning tarkkiy etganligi, o'simlik va xayvonat dunyosi, foydali qazishmalar va x.k). Ijtimoiy tarixiy sharoitda shahar madaniyati ijtimoiy-iqtisodiy (xunarmandchilik va savdoning usishi), harbiy -siyosiy (mudofaa tizimi), boshkarish sifatida namoyon bo'ladi. Shahar madaniyatining vujudga kelishi etnik

jarayonning shakllanishida yangi davrdir. Bu davrdagi etnik jarayon urugchilik davrida etnik jarayonida keskin fark qiladi. Urbanizasiya jarayoni mulkiy tengsizlikni va tabaqalanishni tezlashtiradi, buning natijasida jamiyatda sinflar vujudga kelishiga olib keldi. Shaharlarning vujudga kelishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy -siyosiy, shart-sharoitlari bu davrda Xorazm vohasida vujudga kelmagan edi. Mil. avv. II ming yilliklarda Surxondaryo va Fargona vodiysida tarixiy- ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud bo'lganligi sababli bu xududlarda aholi o'troqlashib, shahar madaniyati sari kadam tashladi. Shu xududlarda yashagan qabilalar me'morchilik, muxandischilik, qurilish va mudofaa tizimida ma'lum darajada bilimga ega bo'lgan.

Mil. avv.. II ming yillikda Xorazm vohasida me'morchilik, qurilish va mudofaa bilimlarining paydo bo'lishi uchun ijtimoiy- iqtisodiy, harbiy -siyosiy, madaniy–texnik, shart- sharoit mavjud bo'lmaganligi sababli xo'jalikda ma'daniy- muxandischilik va qurilish bilimlari vujudga kelmagan edi (bu holda sodda holda rejalashtirish bilimlari shakllangan, bu bilim keyingi taraqqiyotidagi uy- joylarning qurilishida namoyon bo'ldi). Mil. avv.. I ming yillik boshlarida Xorazm vohasida o'troqlashish jarayoni yuz berib, xo'jalikning dexqonchilik sohasi vujudga keldi va tarakkiy etdi (Yakka parson-2).

Mil.av. II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlariga kelib Xorazm voxosi jamiyatining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida qo'ydagi yangiliklarni ko'rsatib utish mumkin.

- 1.Tabiiy sharoitning yanada yaxshilanishi;
- 2.Aholi sonining ma'lum xudularda gavjumlashishi;
- 3.Katta va o'rta darajadagi sug'orish kanallarining qurilishi;
- 4.Xajmi katta manzillarning qurilishi (Quyisoy-2-12ga);
- 5.Xunarmandchilik, chorvachilikning ravnaq topishi;
- 6.Me'morchilik, qurilish bilimlarining ijtimoiy-madaniy asoslarining vujudga kelishi.

Jamiyatning mexnat taksimoti asosida ko'p tarmokli xo'jalikning paydo bo'lishi va uning yanada chuqurlashishi shahar madaniyati shakllanishiga zamin bo'ldi.

Albatta bu yerda tarixiy va tabiiy sharoit muhim o'rin egallaydi. Ishlab chiqarishning ko'p tarmokligi va xo'jalik faoliyatida mo'taxassislarning paydo bo'lishi mexnatning umumiy darajasini, kushimcha maxsulot va o'nga bo'lgan talabni kuchaytirib borgan. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-turmush munosabatlarining o'zgarishiga olib keldi.

Qadimgi madaniyat va undagi madaniyatning xarakteri, qabilalarda mexnat mazmuni va sharoiti xo'jalik ishlarining tashqil etilishi tashqilotchilik, harbiy , diniy munosabatlarning ajralib chiqishiga va mustaqil va bir-biriga qarama-qarshi jamoalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy tabaqalanish (jamoatangsizlik)ning kelib chiqishiga shaxsiy jihatdan karamlik va mulkiy tengsizlikning vujudga kelishiga olib keldi.

Ko'ptarmokli mexnatning paydo bo'lishi boshkarishning turli shaqillarini vujudga keltirdi. Ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi uchun muhim bir shart-sharoitlardan biri, xo'jalik ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida mexnatning tashqil etilishidir. Ishlab chiqarish darajasi va mexnatning tashqil etilishlikning ijtimoiy shakli urbanizasiyaning shakllanishini aniqlaydi. Manzilgox aholisining usishi, mexnat konsentrasiyasi markazlashishi, xo'jalik faoliyatining mo'taxasislashishishaharlarning vujudga kelishining shart-sharoitlaridan biri. Shahar madaniyatining shaqillanishida asosiy sharoitning iqtisodiy manbasi ikkinchi yirik ijtimoiy mexnat taksimoti bo'lib, ya'ni xunarmandchilikning dexqonchilikdan ajralib chiqishi edi, buning natijasida, ishlab chiqarishda ikki yirik tarmokning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ijtimoiy ishlab chiqarish xarakteri va uning to'zulishi o'zgarishigi sabablar bo'ladi va qishloq xujiligiga karama-karshi bo'lgan iqtisodiy soha mustaqil bo'lib, qishloq xujaligi bilan tovar ayriboshlash sohasida aloqa olib borildi. Ilk shaharlarning vujudga kelishida turli obyektiv va subyektiv sababchi bo'ladi (Jo'g'rofik o'rin iklim, sharoit, savdo yuli yaqinligi sug'orish uchun kulayligi, aholi soni ko'pligi, mudofaa uchun kulaylik, harbiy san'atning tarakkiy etganligi, o'simlik va xayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va x.k). Ijtimoiy tarixiy sharoitda shahar madaniyati qadimgi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xunarmandchilik va savdoning usishi, harbiy siyosiy

boshkarish uslublari namoyon bo'ladi. Shahar madaniyatining vujudga kelishi etnik jarayonning shaqillanishida yangi davrni ochib beradi. Bu davrdagi etnik jarayon urugchilik to'zumi davrida etnik jarayondan keskin fark qiladi. Urbanizasiya jarayoni mulkiy tengsizlikning va tabaqalanishining tezlashtiradi, buning natijasida jamiyatda siniflarning vujudga kelishiga olib keladi. Shaharlarning vujudga kelishi uchun ijtimoiy - iqtisodiy, harbiy -siyosiy shart-sharoitlar yaratiladi. Mil. avv. II ming yilliklarda Surxandaryo va Fargona vodiysi yukorida ko'rsatilgan tarixiy ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud bo'lganligi sababali bu xududlardagi aholi o'troqlashib shahar madanichti sari kadam tashladi. Shu xududlarda yashagan qabilalar me'morchilik, muxandischilik, qurilish va mudofaa tizimida ma'lum darajada bilimga ega bo'lganlar

Mil. avv. II ming yilliklarda Xorazm vohasida me'morchilik qurilish va mudofaa bilimlarining paydo bo'lishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy - siyosiy, madaniy-texnik shart-sharoit mavjud bo'lmay aholining madaniy-muxandischilik va qurilish bilimlari vujudga kelmagan edi (bu davrda sodda holda rejalashtirish paydo bo'lgan edi, bu bilim uy-joylarni qurilishida namoyon bo'ldi). Mil. avv. I ming yillik boshlarida Xorazm vohasi aholisining o'troqlashishi natijasida, xo'jalikning dexqonchilik sohasi vujudga keldi va tarakkiy etdi (Yakkaporson-2). Tarixiy taraqqiyot va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida Xorazm vohasida shaharsozlik madaniyatining manbalari vujudga kelgan edi.

Mil. avv. VIII-VII asrlarda Xorazm vohasida yashagan ajdodlarimiz rejalashtirish, muxandislik, me'morchilik, qurilish va harbiy san'at sohasida bilimlarga ega bo'lgan. Bu bilimlarning bu yerdagi aholida vujudga kelishiga janub tomondagi o'troq dexqonchilik qabilalari bilan madaniy aloqalar va ko'chmanchi qabilalarning tuxtovsiz xujum qilishlari sabab bo'lsa kerak. Xorazm vohasidagi tarixiy - siyosiy va harbiy vaziyat takomillashgan mudofaa tizimga ega bo'lgan shaharlarning qurilishiga zamin tayorlangan. Sak-massaget qabilalarining harbiy jihatdan kuchayishi, bu qabilalarning jiplashishi natijasida Xorazm boshlik harbiy -siyosiy ittifokni paydo bo'lishiga olib keldi. Xuddi shu tarixiy davrga oid

yozma manba bugan “Avesto”dagi tarixiy - madaniy, etnik markazlar to’g’risidagi ma’lumotlari, markazlashgan siyosiy birlashmaning mavjudligini isbotlaydi. Mil.av.VIII-VII asrlarda Xorazm vohasini urbanizasiya jarayoni to’la qamrab olib, bu esa o’z navbatida siyosiy-ijtimoiy jixatidan chuqur o’zgarishlar yuz berishiga imkon berdi. Bu sifat jixatidan ro’y bergan o’zgarishlar xajmi katta va mudofaa tizimiga ega bo’lgan aholi yashaydigan shaharlarning paydo bo’lishiga olib keldi. Tarixiy taraqqiyot va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-etnik, me’morchilik, qurilish mudofaa inshootlari sohasidagi ro’y bergan o’zgarishlarni arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilamiz.

Qadimgi Xorazmda ilk temir davriga xos yukoridagi xususiyatlarning ba’zilar mavjud edi. Xuddi shu tarixiy davrda Markaziy Osiyoda o’troq hayot asosida dexqonchilik, xunarmandchilik savdo-sotiq rivojlanishi asosida ilk shaharlar vujudga keldi. Temirdan qilingan qurollarning xo’jalikda keng kullanilishi mexnat qurollarining takomillanishiga, yangi xo’jalik qurollarining paydo bo’lishiga, mexnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarish kuchlarining yangi xududlarga joylashishiga keng yul ochib berdi. Bu esa o’z navbatida aniq xo’jalik sohasi sari yugirilgan doimiy xo’jalik mashg’ulotining paydo bo’lishiga olib keldi. Chunonchi birinchi xo’jalik yurituvchilar chorvador qabilalar bo’lib, doimiy ko’chmanchilik tarzda hayot kechirgan. Ikkinchi xo’jalik usuli o’troq holda hayot kechirib sug’orma dexqonchilik asosida xo’jalik yuritgan qabilalar faoliyati bilan bog’liq edi. Bu qabilalar vodiylarda, vohalarda joylashib tarixiy-madaniy va etnik markazlarni vujudga eltirdilar, yani Baktiriya, So’g’diyona, Margiyona, Parfiya, Xorazm, Parkana, Davon B.I. Veynberg Quvisoy madaniyatini o’rganish jarayonida Quyi Amudaryo xududiga qabilalar mil. avv.. VII asrda Janubiy Turkmaniston yoki Shimoliy Erondan kuchib kelgan degan fikrni olga surgan⁵. Bizning fikrimizcha, Amirobodliklarning bir qismi Sarikamish buyiga kuchib borib, shu xududni o’zlashtirganlar. Bu qabilalar asosan mahalliy bo’lib, shu davrda Janubiy O’zbekistondan kuchib kelgan o’troq qabilalar bilan chatishib ketgan. O’zbekiston janubidagi qabilalarda me’morchilik, rejalashtirish, geografik

⁵ Вейнберг 1979, 49 бет.

o'rinni tanlash, qurilish va mudofaa bilimlari yuksak darajada rivojlanganligi arxeologik materiallar bilan tasdiqlangan. Albatta, me'morchilik va qurilish bilimiga ega bo'lgan qabilalar mil. avv.. VI-V asrlarda Xorazm vohasida puxta ishlab chiqilgan rejalashtirish asosida, takomillashgan mudofaa tizimiga ega bo'lgan shaharlarni bunyod etdi. Bunday puxta ishlangan va murakkab mudofaa inshootga ega bo'lgan ilk qal'alar Amudaryoning chap vao'ng soxilidagi xududlarda qurilgan. Dingilja manzilining mudofaa tizimi murakkab va o'zok muddatga asoslangan mudofaa xarakteriga ega bo'lmasa xam, uni qazish vaktida shaharlarga xos materiallar olindi. Mil. avv..VI-V asrlarda Xorazm me'morlari va muxandislari uch tomoni teng uchbo'rchak, to'g'ribo'rchak holda rejalashtirilgan qal'alarni ko'rganlar. Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Oybugir qal'a, Xiva, Bozor qal'a, Xazorasp, Kush va qishloq tipidagi Dingilja, Kushqal'a avval puxta ishlab chiqilgan reja asosida qurilgan, Ko'zaliqir va Qal'aliqir balandlikka ko'chmanchilar bilan chegarada qurilgan harbiy chegara avzifasini bajarib, Xorazm vohasini g'arbiy-janubiy tomondan ko'chmanchilar xujumidan ximoya qilgan. Bunday harbiy mudofaa vazifasini Oybo'ri qal'a, Xiva shaharlari xam bajargan. Janub tomondan Xazorasp qal'asi mudofaa vazifasini bajargan. Arxaik davr shaharlarining daslabki davrdagi mudofaa devori paxsadan tiklangan. Bu davrda Ko'zaliqir mudofaa devori aylana shakldagi bo'rij bilan to'g'riturtbo'rchak shinaklarga ega bo'lgan bo'lsa, Qal'aliqir mudofaa devorida esa turt tomoni teng bo'rijlar mavjud. Xiva shaxrining daslabki mudofaa devori va bo'rjsi paxsadan tiklanib, kengligi 2 m yulakka ega. Bu arxaik davrda Xiva devoridagi bo'rij to'g'ribo'rchak shaklida bo'lgan. Shu bilan birga asosiy devordan 5-6 m o'zoklikda kushimcha devor xam qurilgan. Xazoraspda xam daslabki davrda bo'rij to'g'ribo'rchakli bo'lgan. Arxaik davri shaharlari mudofaa tizimida to'g'ribo'rchakli va turt tomoni teng xom g'ishtlar ishlatilgan.

Xorazmning arxaik davr shaharlarining rejalashtirilishi So'g'd, Fargona, Baqtriya va Margiyona shaharlari qurilishida kullanilgan usulga juda uxshaydi. Baqtriya xududida Kiziltepa yodgorligi to'g'riurchak shaklida qurilgan edi. Uchbo'rchak va uchbo'rchakka yaqin shaklda Ko'zaliqir, Oybo'riqal'a,

Xayitobodtepa,⁶ Fargona vodiysidagi Eylatan⁷, Turkmanistonda Elkndepa kabi qal'alarda namoyon bo'lgan(Usmonova 1963, 20-30 betlar, 1975, 530-531 betlar, Usmanova, Drecvyanskaya 1976. 553 bet).

Urta Osiyo xududidagi Oltintepa (Janubiy Turkmaniston), Chust, Dalvarzin (Fargona vodiysi), Sopolli, Jarkuton (Surxondaryo) yodgorliklarining mudofaa tizimi qurilishida tugri bo'rchakli xom g'ishtlar ishlatilganligi ma'lum . (42x26x9, 44x27x12 sm). Mil.avv.VI asrdan boshlab shaharlar mudofaa qurilishida tugribo'rchakli xom g'isht ishlatilgan (52x26x9, 54x27x10 sm) . Mil.avv.V asrdan boshlab turt tomoni teng, xom g'ishtlar ishlatilgan(45x45x14, 43x43x12, 40x40x10 sm). Ko'zaliqir, Qalaliqir, Bozorqal'a, Oybugirkal'a, Xiva, Xazorasp shaharlarining mudofaa tizimi mukammal bo'lib, o'zok muddatli ximoyaga muljallanib qurilgan. Aylana va to'g'ribo'rchakli shakldagi bo'rjlar Xorazm vohasidagi shaharlar tarixida eng qadimgisi bo'lib xisoblanadi(Ko'zaliqir,Xiva,Xazorasp). Bu tarixiy davrdagi shaharlarning mudofaa tizimida eng muhim elementlaridan biri darvozaoldi murakkab mudofaa inshooti bo'lib, dushmani shahar ichkarisiga to'g'ridan-to'g'ri qirishga yul bermagan. Darvozaoldi murakkab inshoot darvozadan ancha o'zoklikda (17-20 m) joylashib, uning qurilish uslubida bir necha marotaba aylanma yulak mavjud bo'lgan. Shahar ichkarisiga qirish uchun xarakat qilgan dushman aylanma yulak orkali amalga oshirishga majbo'r bo'lgan(Qalaliqir, Oybugirqal'a, Bozorqal'a arkida).

S.P.Tolstov "Ko'zaliqir xayvonlarni kamab quyish uchun muljallangan." degan fikrni ilgari so'rgan. Shaharning turt qatorli mudofaa devori, shinaklariga ega bo'lgan aylana shakldagi bo'rj kabi murakkab va takomillashgan mudofaa tizimiga qarab xulosa qiladigan bo'lsak, tadqiqodchining fikri haqiqatdan ancha yirok xisoblanadi. Darxaqiat, xayvonlarni saqlab turish uchun bunday mukammal mudofaa tizimiga ega bo'lgan shaharni qurish maksadga muvofik emas, balki yirik va o'rta novdalarni birlashtirib, ma'lum bir xududni qura -holda o'rab olish

⁶ Собиров 1979, 9-10 бет

⁷ Заднепровский 1962, 108-110 бетлар

mumkin. Xozirgi vaktida xam chorvadorlar chul-saxrolarda xayvonlarni bokib yurish jarayonida shu yerdagi mavjud bo'lgan materiallardan foydalangan holda ma'lum xududni o'rab olib, xayvonlarni saklaydilar. Darxaqiqat, xajmi katta va takomillashgan mudofaa tizimiga ega bo'lgan manzillarni qurilishi tarixiy-harbiy va hayotiy zaruratdan kelib chikkanligi ma'lum.

Yirik sug'orish inshootlarining qurilishi, xajmi katta shaharlar va ularning mukammal mudofaa tizimi jamoalar orkali amalga oshiriladigan tadbir bo'lmasdan balki siyosiy birlashmalar tamonidan olib borilib, uning qurilish faoliyatidan kelib chikgan. Albatta, bunday yirik qurilish inshootlarining tuxtovsiz amalga oshirish uchun erkin jamoa azolari, kullar mexnatidan keng foydalanish yuli bilan amalga oshirilgan deydi S.P.Tolstov.

Xorazm arxaik davr shaharlarining dastlabki paxsa ma'lum shaklga ega bo'lib, to'g'ri yunalish asosida qurilgan. Bunday paxsa devorni qo'shni xududlardagi yodgorliklarida xam uchratish mumkin. Afrosiyobning paxsa devori dastlabki davrda "val" shakldaligi ma'lum. Bunda paxsa to'g'ri yunalishga ega bo'lib uning ustki qismining ikki chekkasi ma'lum bir chegaraga ega emas, bunday ko'tarma "val" Baqtriyadagi Kiziltepada xam ko'zga tashlanadi.⁸ Oddiy va sodda holdagi "val" shakldagi devor Fargona vodiysidagi Sho'rabashat yodgorligida o'rganilgan. Xorazm arxaik davr shaharlaridan biri Ko'zaliqir rejalashtirishi Margiyona, So'g'd, Baqtriya shaharlari rejalashtirilishidan keskin fark etadi. Darxaqiqat bu yodgorlik baland qir ustiga uchbo'rchakka yaqin shaklda qurilgan⁹. Oybugirkalani me'moriy tarxi to'g'ribo'rchakka yaqin. Kalaliqir, Ichakkal'a shaharlari to'g'ri turtbo'rchak shaklda, Xazorasp turt tamoni teng shakllarda qurilgan . Bunday rejalashtirilish uslubi Xorazm vohasiga qo'shni bo'lgan xududlardan xam topib o'rganildi.Xorazmning arxaik davr shaharlari mudofaa tizimining yana bir asosiy elementlaridan biri yulak xisoblanadi.(Ko'zaliqir, Kalaliqir, Ichakkal'a, Xazorasp, Kushkal'a) Bunday yulaklar Afrasiab (Sogd) Yerko'rgan O'zunqir, Sangirtepa (

⁸ Хакимов, Сагдуллаев 1979, 565 бет

⁹Толстов 1948, 92-97 бетлар,1962, 69- 109 бетлар.

Kashkadaryo Sogdi), Kiziltepa, Talashgan, Xaitobod, Baqtriya yodgorliklarida o'rganildi.

Xorazm arxaik davr shaharlari mudofaa tizimida yetakchi ximoya uslublaridan biri bo'rlardir. Xorazm shaharlari mudofaa tizimida uch xil shakldagi bo'rlar qurilishi amalga oshirilgan, yarim aylana, to'g'ri turtbo'rchak. Ko'zaliqir devorining yarim aylana shakldagi bo'rji juda qadimgi bo'lib, mil. avv. VI- asrga tegishlidir. Devor va bo'rlar shixmat usulda quyilgan, to'g'ribo'rchakli shinaklarga ega. Ko'zaliqir devoridagi bo'rlar o'rtasidagi masofa 36 m. Bozorkalada 30-50 m. Xazorasp- 10-55 m. Ichonkala devorida 30-55m. Devor va bo'rij to'g'ribo'rchakli xom g'ishtdan tiklangan. Bu xususiyat butun Markaziy Osiyo xududidagi shaharlar qurulishiga xos edi. Bizning fikrimizcha Ko'zaliqirning qurilishi va uning mudofaa tizimi mahalliy muxandislar tomonidan amalga oshirilgan.

Mil.av.1 ming yillik urtalarida xorazmliklar g'arbiy va shimoliy – sharqiy va janubiy chegaralari daxlsizligini ta'minlash maksadida takomillashgandan keyin chegara –harbiy mudofaa sistemaga ega bo'lgan shaharlarni ko'rganlar.Bu tarixiy davrda qurilgan shaharlarda alohida devor bilan urab olingan arkga ega. Bunday mudofaa uslub Ko'zaliqir, Oybugirqal'a, Xiva, Xozarasp yodgorliklarida o'rganilgan. Arxaik davr shaharlari mudofaa tizimida shinaklar alohida o'rin egallaydi. Ko'zaliqir mudofaa tizimida kullangan shinaklar to'g'ribo'rchakli bo'lib, shaxmat usulida joylashtirilgan.Shahar mudofaasida katnashgan jangchi yulakning ma'lum bir belgilangan joyida turib, uch shinak orkali dushmanga zarba berish imkoniyati bo'lib, faol xujumni olib borish bilan birga, mudofasi ojiz joyga tez yetib borish imkoniyati bo'lgan.

Xorazm arxaik davr shaharlari mudofaa tizimidagi eng muhim elemenlaridan biri darvoza oldi murakkab inshooti edi. (Bu davrda Urta Osiyo xududidagi shaharlarda bunday element mavjud emas edi.) Mil. avv. VI asrdayok Xorazmliklar darvozaga e'iborni berib, darvoza oldi ximoyasini yulga qo'yganlar. Xorazmni arxaik davr shaharlarini o'rganish jarayonida olingan materiallar bu

xududda yashagan qabilalar yuksak darajada tarakkiy etgan me'morchilik, qurilish va mudofaa tizimiga ega bo'lgan degan xulosa chiqarishga imkon berdi.

Mil. avv. VI-V asrlarda qurilgan Xorazm shaharlarining mudofaa tizimi aktiv mudofaaga asoslanib piyoda va otlik askarlar zarbasiga mos holda qurilgan bo'lib, shahar aholisi hayotida muhim o'rin egallagan.

Arxeologik ashyolar va yukorida keltirilgan dalillarga asoslanib mil.avv.I-yillik o'rtalarida jamiyat taraqqiyotidagi sifat jixatidan tub o'zgarishlar shahar va qishloqlarning me'moriy topografik to'zilishida namoyon bo'lgan:

- 1) Katta, murakkab mudofaa inshootga ega bo'lgan shaharlar (70,40,33,26ga) (Kalaliqir, Ko'zaliqir, Bozorkal'a, Xiva)
- 2) O'rtacha kattalikdagi shaharlar (20 - 6 ga) (Oybugirkal'a, Xazorasp)
- 3) Mudofaa tizimga ega bo'lgan kishloklar(1-0,5 ga.). (Dingil'ja, Kushqal'a)

Mil. avv. VII-V- asrlarda Xorazm vohasida mavjud bo'lgan kalalarning tarxi va mudofaa tizimi uslubiga qarab quyidagi guruxlarga ajratish mumkin.

Xorazm vohasida mil.avv. VI-V asrlardagi tarixiy jarayonni tahlil qilishda mavjud bo'lgan asosiy manbalarni uch guruxga bo'lish mumkin, ya'ni yozma manbalar, yunon va rim tarixchilari asarlari va arxeologik ashyolardir. Mil. avv.VI-asr o'rtalarigacha axmoniyalar imperiyasi tashqil topishigacha bo'lgan davrda Xorazm vohasida massagetlar siyosiy birlashmaning mavjudligi xaqida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Bo'lar tosh kabrlarga bitilgan yozuvlar.(Persepol yaqinidagi So'za, Ekbatana,Nakshi Rustom, Bexistun) koyalariga uyib yozilgan bitiklar va rasmlar.

Rim, Yunon va Xitoy tarixchilari asarlarida xozirgi Markaziy Osiyoliklarning qadimgi ajdodlari sak-massagetlar bo'lib, Eroniy tillarning sharqiy shaxobchasi va qisman turkiylashgan sak-skif tillarida gapirishganlar. Bu davrda Turon zaminida massaget qabilalarining harbiy -siyosiy kanfederasiyasi (ittifok yoki birikma) vujudga kelib, bo'nga Xorazm boshchilik qilgan, bo'nga esa qadimiy Sirdaryo xavzasi, Amudaryoning sharqiy o'rta okimi Zarafshonning quyi okimi, Sirdaryoning o'rta okimidan Tyan-shangacha bo'lgan xududlar qirganligi tugrisida muloxazalar mavjud.

Urta Osiyo xududidagi halklar to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar yunon va rim tarixchilari asarlarida mavjud. Mil.avv.V asrda yashagan Gerodot Urta Osiyoning yirik daryosi Amudaryo va uning atrofida yashagan qabilalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. U o'zining "Tarix" asarida Amudaryoga «Akes» deb nom berib, xorazmliklarni bu daryo suvidan keng foydalanganliklari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni bergan. "Daryo" (Araks) qirk tarmok hosil qilib quyiladi, uning bir tarmogidan tashkari, qolgan xamma tarmoklari botkokliklar va halkoblar ichida goyib bo'ladi: bu yerda yashovchi odamlarning ovkati balik, o'zlari esa tyulen' terisini yopinib yurganlar, deb aytadilar. Araksning yolgiz bir tarmogi ochik yerlardan o'tadi va Kaspiy dengizga quyiladi. Xullas Kaspiy dengiz, g'arb va kavkaz bilan chegaralanadi, sharq tomondan esa o'nga bepoyon tekislik kelib yondashadi. Bu bepoyon tekislikning bir qismini massagetlar ishgol qilgan¹⁰. Amudaryo to'g'risida Strabon shunday yozadi: "Ko'p joylarda tarmoklarga ajralib ketadigan Araks daryosi boshka daryolarga karaganda bu mamlakatga (Xorazmga ko'prok suv beradi: u o'zining butun tarmoklari bilan shimolda dengizga borib quyiladi (Orol dengizi bo'lsa kerak) va fakat uning bitta irmogi Girkan kultigiga borib quyiladi. Massagetlar va saklar sostaviga atasiylar va xorasmiylar xam qiradi. Araxasdar massagetlar, Baqtriyaliklarga yaqin yerda ulardan g'arbrokda Oks daresi bo'ylarida yashaydilar. V.P'yankov yunon tarixchilari va asarlaridagi ma'lumotlar asosida xorasmliklarni Turkman-Xorasan tog'ining sharqiy qismi va Tajan-Gerirud (Murgob) vodiysida joylashganligi xaqida xulosaga kelgan.

Mil. avv. VI-V asrlarda Xorazm vohasi aholisining o'troq dexqonchilik madaniyatining karor topishi va sug'orish inshootlari qurilishining olib borilishi davlatchilikning rivojlanishini tezlashtirdi. Xajmi katta sug'orish inshootlarining qurilishi va undan foydalanish yetarli bo'lmasdan, mexnat qurollarini takomillashtirish, yani dexqonchilikda mexnat unumdorligini oshiradigan, o'zok muddatda foydalanadigan kattik moddadan qilingan qurollar kerak edi. Xorazm xududida temirdan qilingan bolga Ko'zaliqirda topildi.

¹⁰ Геродот. "Тарих" I, 201-205 бетлар, Фуломов 1959, 79 бет.

Sug'orish inshootlarning qurilishi mexnat unumdorligini va kushimcha maxsulotning ko'payishiga ,ko'p tarmokli xunarmandchilik,savdo-sotiqning usishiga ,o'troq va ko'chmanchi qabilalar o'rtasida maxsulot ayriboshlashning usishiga olib keldi. Bu holatlar o'z navbatida qabilalar ichida turli xo'jalik mo'taxasisliklarining ishlab chiqarish faoliyatining yanada tarakkiy etishiga, ozik-ovkat zaxirasini va boylikni to'plash ,birinchi navbatda sug'orma dexqonchilikka rivojlantirishni xayetiy zaruriyat qilib qo'ydi

Ko'zaliqir, Kalaliqir, Bozorkala katta xajmda qurilgan bo'lib,rejashtirilishi jixatidan puxta ishlangan bo'lib, takomilashgan mudofaa tizimga ega. Bunday murakkab mudofaa inshootga ega bo'lgan shaharlarni qurilishi (Ayniqsa ko'chmanchilar bilan chegarada) tarixiy va siyosiy vaziyatning keskin ekanligini isbotlaydi. Xajmi katta, ikki qatorli mudofaa devor, aniq masofadagi bo'rjlar, to'g'ri bo'rchakli ikki qatorli shinaklar, darvoza oldi murakkab inshootlarning mavjudligi Xorazmliklarda me'morchilik, rejalashtirish, qurilish va mudofaa bilimlarining yuksak darajada tarakkiy etganligini bildiradi. Shunday qilib, Mil. av VI-V asrlarning o'rtalarigacha (Axmoniyalar tomonidan Xorazmni bosib olish arafasida) bo'lgan tarixiy davrda Xorazm vohasida shaharsozlik madaniyati vujudga kelib,Sharq shaharsozlik madaniyati tizimiga qirgan.Bu tarixiy davrga kelib, Xorazm vohasida yashagan qabilalar iqtisodiy-madaniy, etnik va qurilish, harbiy bilimlar sohasida yuksak darajaga ega bo'lib, Urta Osiyoning boshka xududlaridagi yashayotgan qabilalarning xo'jalik madaniyati bilan bir xil darajada bo'lgan.

Xorazmning arxaik davr shaharlari murakkab mudofaa tizimiga ega bo'lib, aktiv mudofaaga asoslangan qurilgan. Bu davrdagi shaharlar iqtisodiy-ma'muriy, siyosiy-madaniy, diniy- harbiy va mudofaa markazlari bo'lib kelgan. Shu bilan birga bu davrdagi shaharlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ajdodlarimizning jipsligini va inokligini bildiradi .

Shaharlarning kompleksi qadimgi jamiyatda iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy, diniy-harbiy , aholining joylashishi jixatidan tarixiy o'rnini va rolini aniqlashda katta axamiyatga ega. Chunonchi ichki to'zilishining xajmi, aholi zichligi,

geografik muxit, ichki va tashki savdo yuli ustida joylashishi, foydali qazilmalar va boshkalar.

Mil. avv.VI-V asrlar Xorazm shaharlarining umumiy xajmi va mudofaa tizimi mavjudligiga qarab quyidagi guruxlarga ajratish mumkin.

ShAHAR TARTIBI XAJMI VA JOYI.

1.DARAJALI ShAHARLAR: 400- 200 ga

2.DARAJALI ShAHAR: 200- 80 ga

Xorazm vohasida 1-2-darajali shaharlar qurilishi amalga oshirilmagan.

3.DARAJALI ShAHARLAR: 70-20 ga

Qal'aliqir.

Ko'zaliqir

Bozorqal'a

Xiva

4.DARAJALI ShAHARLAR: 5-10 ga

Oybo'g'irqal'a

Hazorasp

5.QISHLOQ TIPDAGI MANZILLAR: 0,5-5 ga

Qo'shqal'a

Dingilja

Miloddan avvalgi VII-VI asr Xorazm shaharlarning tuzilishi va rejalashtirilishi mudofaa tizimiga qarab uch xil variantga ajratish mumkin.

Chunonchi:

1. Katta xajmdagi shaharlar 70-40 ga. (Ko'zaliqir, Bozorqal'a)

2. O'rtacha xajmdagi shaharlar 10,8-10 ga (Xazorasp, Oybugir)

3. Qishloq shaklidagi kichik manzillar 1,5-0,5 ga (Kushqal'a,Dingilja)

Shunday qilib, Xorazm vohasining g'arbiy, janubiy xududlarida xajmi katta, o'rta darajadagi ilk shaharlar, qishloq shaklidagi manzillar mavjud bo'lgan . Mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan boshlab, aholi istikomat qilgan olib makonlar murakkab mudofaa inshootga ega bo'lgan. Ko'zaliqir, Kalaliqir, Charmanyap sug'orilish xududining shimoliy kismini, Xazorasp Tashsoka xududining,

Bozorqal'a Akchadaryo xavzasining, Xiva Polvonyap sug'orilish xududining iqtisodiy- madaniy, diniy etnik markazi bo'lib, dastlabki shahar – davlatlar bo'lgan. Bu shaharlar me'moriy-topografik va qurilishi jixatidan takomillashgan mudofaa tizimga ega bo'lgan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga kelib Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik rivojlanishida chuqur o'zgarishlar vujudga kelgan. Natijada tarixiy va harbiy – siyosiy vaziyat keskinlashdi. Aholi sonining oshib borishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishiga olib keldi. Natijada yangi sug'orma dexqonchilik vohalari vujudga keldi. Jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy kuchlarning manfaatlari bir-biriga zid kelib qoldi va kam sonli kishilarning ma'naviy extiyoji moddiy extiyojidang ustunligi paydo bo'ldi. Kabila sardorining iqtisodiy va xukukiy mavkega ega bo'lishi natijasida boylikni ko'paytirish, ortikcha ishlab chiqarish kuchlariga ega bo'lish extiyoji oshib boradi. Bu jarayonni Abu Rayxon Beruniy «Inson yalangochligi va madorsizligi tufayli, ximoya qiluvchi tayanchlari bo'lmaganligi sababli boshkalar tomonidan musibat chekarli. Uning extiyojini kondira oladigan, talabini ximoya qiladigan doimiy zaruriyatni xis etardi. Shunday qilib qurib turibmizki, ximoya qilish zaruriyati tagin boshka extiyojlar (ovkat, kiyim-kechak va x.k)ni kondiruvchi zaruriyatlar kabi moddiy omillar insonlarni birgalikda yashashga da'vat etadi. Extiyojlar turli-tuman va son sanoksizdir. Fakat ularni bir kancha kishilar birgalikda ta'minlay olishlari mumkin, buning uchun kishilarda shahar yaratish zaruriyati tugiladi»-deb, «Minerologiya» asarida kayd etsa,¹ «Geodeziya» asarida «Odam extiyojining ko'pligi, tiyilishi kamligi, ximoya qilish quroliga ega bo'lmaganligi va dushmanning ko'pligi tufayli, bir-birini ximoya qilish zarurligi, o'zini va boshkalarni ta'min etishga zarur bo'lgan biror ishni bajarish uchun o'z karindoshurugi bilan jamiyatda birlashishga majbo'r bo'lgan»².

I.2. Xorazm arxaik va antik davr shaharlarining manbalarda aks etishi va o'rganilishi tarixi.

S.P. Tolstov raxbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali xodimlarining Amudaryoning o'ng qirgogidagi, Xorazm Mamun

Akademiyasi, Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti xamkoriligidagi arxeologiya guruxi olimlari tomonidan Xorazm viloyati xududida arxaik davrga oid qishloq va shaharlarda arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordilar¹¹. Tadqiqotchi M.G. Vorobyova tasdiqlashicha Amudaryoning o'ng soxilida 250, chap soxilida 60 dan ortiq arxaik davri qishloq va shaharlar mavjud¹². Afsuski, yuqorida qayd etilgan qishloq va shaharlar arxeologik qazish ishlari olib borilmagan. Ayniqsa bu holat Amudaryoning o'ng soxilida joylashgan yodgorliklarga tegishli bo'lib, ularni arxeologik jixatidan o'rganish jarayonida ko'plab materiallar topilgan. Ular Oybugirkala, Bozorkala va qishloq manzili Dingilja bo'lib, ular arxeologik jihatdan yetarli darajada o'rganildi holos¹³, ammo u yodgorliklarning mudofaa inshootlari maxsus o'rganilmagan. Biz quyida e'tiborni aynan ana shu yodgorliklarni mudofaa inshootlarining arxeologik jihatdan o'rganilishga karatishni lozim topdik.

1. Xazorasp. Xorazm vohasining janubiy qismida, Baqtriya, So'g'd yo'lida, Urganch shaxridan 70 km o'zoqlikda past tekislikka joylashgan. Yodgorlik kvadrat shaklda (340x320m, yani 10,8 ga).

Qalani qadimgi davrda mudofaa devori bilan o'rab olingan, uning saqlanib qolgan balandligi urtacha 4-5m. Turli tarixiy davrlarda devor tashqi tomondan ta'mir qilingan. Yodgorlikning janubiy-sharqiy tomonida arki joylashgan bo'lib, mahalliy aholi o'rtasida u Dev-solgan nomi bilan ma'lum, uning maydoni kvadrat shaklda: 40x40 m. Xazorasp mudofaa devorida ma'lum masofada joylashgan yarim aylanal bo'rlar mavjud. Bo'rlarning saqlanib kolishi turlicha, ya'ni shimoliy devorda 7, g'arbiy tomonda 6, sharqiy devorda 4, janubida esa 1 bo'rl saklangan. Bo'rlar o'rtasidagi masofa turlicha, bo'rl yaqinidagi bo'rlar o'rtasidagi masofa –10 m, asosiy devordagi bo'rlar o'rtasidagi oraliq esa 55 m. Qal'aning qirish qismi janubiy devor markazida joylashgan bo'lib, uning kengligi 8 m. Darvozadan to'g'ri ko'cha o'tgan bo'lib, uning chap tomonida masjid joylashgan. Yodgorlikni qadimda to'rt tamonidan suv o'rab olingan, bu xozirgi

¹¹ Толстов 1948А, 1948Б, 1962.

¹² Воробёва 1979, 40 бет.

¹³ Мамбетуллаев 1990, Воробёва 1973

vaktda sharqiy tamonda saqlanib qolgan. Yodgorlikning qurilishi va undagi madaniy katlamlarni o'rganish ishlari dastlab Ya.G'.G'ulomov tomonidan olib borildi. U yodgorlikni ko'zdan kechirib, uning qurilish davrini mil. avv. V-IV asrlarga oid degan xulosaga keldi.

1997-1998 yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasi Urganch Davlat Universitetining arxeologiya guruxi olimlari tomonidan izlanishlar olib borildi, ammo uning quyi katlamgacha yana etib borilmadi. Xazoraspning kadimiy katllarini o'rganishga karatilgan izlanishlar Xorazm Ma'mun Akademiyasi, Ya.G'.G'ulomov nomidagi arxeologiya institutining birlashgan arxeologik guruxi tomonidan 2002 yilda davom ettirildi. Kazishmalar vaktida Xazoraspning, shimoliy devori markazida va shimoliy-g'arbiy bo'rchagining ichki qismida paxsadan tiklangan qadimiy devor topildi. Devor o'z navbatida to'rtbo'rchakli bo'rji yoki pilyastr bo'lib, uning markazida nayza o'qi uchli shinak joylashgan, kengligi 18 sm, balandligi 40 sm. Shinakning ichki qismi devori somon loy bilan suvalgan. Xazoraspning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida qazish paytida olingan sapol buyumlar qurilish tarixini mil. avv. VI-V asr bilan aniqlash imkonini berdi.

2. Ko'zaliqir. Amudaryoning chap soxilida Sariqamish xavzasi Charmanyop sug'orilish tizimi zonasida Toshxovo'z shaxridan 85 km o'zoklikda joylashgan. Kala qir ustuda uchbo'rchak shaklida qurilgan bo'lib, uning umumiy maydoni 40 ga¹⁴. Yodgorlik ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi qirning janubiy-g'arbiy qismida kad ko'targan, shaxriston va arkdan iborat. Ikkinchisi esa birinchi obyektidan pastrokda joylashgan. Arxeologik qazishmalar natijasida yodgorlikda ikki qurilish davri mavjudligi aniqlangan. I qurilish davrida yo'lakka ega bo'lgan, to'rt qatorli devor paxsadan tiklangan, yarim aylanali bo'rlarga ega, ular o'rtasidagi masofa 36m. Devor yo'lagida uy, xonalari, o'choqlar, ibodatxonalar joylashgan.

II qurilish davrida paxsa devorga xom g'ishtli devor yopishtirilib qurilgan. Bo'rji devor xom g'ishtdan qurilgan (52x26x10sm). ikkinchi boskichli yo'lak

¹⁴ Толстов 1948 а, 1948 б.

maydonida o'zgarish yuz bermaydi. Devor va bo'rdagi nayza o'qi uchi shinaklar shaxmat uslubida joylashgan¹⁵.

Shaharning ichki qismi arxiologik jihatdan to'la o'rganilgan emas, shuning uchun xam uning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi to'g'risida turli fikrlar mavjud bo'lib, ilmiy munozarali holda qolib ketmokda.

3. Bozorkala – Qoraqalpog'iston respublikasi To'rtko'l tumani xududida, tekislikda deyarli kvadrat shaklda (600x560m) qurilgan uning umumiy maydoni 33ga. Devor pastki qismida 8.5-9m. Devor ikki qatorli bo'lib, ular o'rtasida yo'lak-karidor, hosil bo'lgan. Tashqi devor nayza o'qi uchli shinakka ega. Devor uning bo'rchagida yarim aylanali bo'rdagi joylashgan bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 30-50 m, kengligi 5,5m devordan yon usib chiqishi 6,5 m. kal'a darvozasi shimoliy devor o'rtasida joylashgan, kengligi-5 m, ikki yon tomonida yarim aylanali bo'rdagi mavjud. Ark yodgorlikning shimoliy-sharqiy bo'rchagida joylashgan, kvadrat shaklida. (120x120 m) Uning maydoni 1,4 ga teng. Ark ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, yarim aylana bo'rdagi ega. Arkning qirish qismi bir necha yo'lakli, to'g'ri bo'rchakli "Labirint"ga ega, xajmi 22x17 m. Labirint o'z navbatida kengligi 2,1 m yo'lakga ega. Uning shimoliy-g'arbiy bo'rchagida ikki tomonga yo'nalgan "Qaldirg'och dum"li bo'rdagi mavjud. Ark devorining saqlanib qolgan kismi 9-10 m. Devor nayza o'qi uchli shinaklarga ega, ular o'rtasidagi oraliq 1,6-2 m. Devor va bo'rdagi qurilishida 42x47x10-12 sm xom g'isht ishlatilgan. Shaharda hayot mil. avv. VI-V asrdan to miloddan I asrigacha davom etgan¹⁶.

4. Qalaliqir – Amudaryoning so'l soxilida, Amudaryoning qadimgi irmog'i Daudon sug'orish tizimida joylashgan. Yodgorlik to'rtbo'rchak shaklda rejalashtirilgan 70 ga maydonga ega. Qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, yo'lakga ega. Shaharning to'rtga darvozasi bor, labirintga ega darvozadan yon tomonga usib chiqishi 18 m. Qal'a devorida ma'lum masofada joylashgan to'g'ri

¹⁵ Толстов 1962. 69-109 бетлар

¹⁶ Толстов 1948, Ворабьева 1978, Варабьева 1979, Гертман 1980.

bo'rchakli bo'rjlar joylashgan¹⁷. 1952-1956 yillarda Yu.A.Rapoport, M.S.Lapirov-Skoblo Kalaliqirda arxeologik ishlari olib bordi, natijada shahar devorida 3 ta qurilish davri mavjudligi aniqlandi.

I qurilish davrida ikki qatorli devor paxsadan tiklangan, balandligi 1,1-1,3 m, ular o'rtasidagi kenglik 2,5 m. Darvoza oldi murakkab inshoot devori xam paxsadan qurilgan.

II qurilish davri-paxsa devor ustiga xom g'ishtli devor qurilgan, g'ishtning xajmi 40x40x10 sm. Bu qurilish davrida yo'lak xajmida o'zgarish sezilmaydi, darvoza oldi murakkab inshoot devorida xam xom g'isht ishlatilgan.

III qurilish davrida g'isht devor ustiga paxsa devor qurilgan, devorning umumiy balandligi 7 m, kalinligi 5 m. Shaharning qurilishi mil. avv. VI asrga oid ekanligi aniqlangan¹⁸.

5.Katta Oybugur qal'a. Shumanaydan 41 km shimoli-g'arbda joylashgan. Mahalliy aholi o'rtasida Jampikqal'a nomi bilan ma'lum. Yodgorlik birinchi marta Xorazm arxeologiya – etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 1946 yilda topilib, uning umumiy ko'rinishi rasmga tushirilgan, rejasi chizilgan, lekin arxeologik qazish ishlari olib borilmagan¹⁹. 1956 yilda yodgorlik yangidan ko'zdan kechirildi, olingan arxeologik materiallarga qarab uni yoshi mil. avv.. IV, er-ng I asri bilan belgilandi. Yodgorlikning yukori madaniy katlami X-XIII asrlarga oid degan xulosaga kelindi. 1964-66 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining Ustyurt guruxi yodgorlikda tekshirish ishlarini olib bordi, natijada mil. avv. IV er-ng IV asrlariga oid ekanligini aniqladi²⁰. Yodgorlik to'g'ri bo'rchakka yaqin shaklda qurilgan bo'lib, sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan. Qal'aning umumiy maydoni 10 ga. Yodgorlik qadimda mudofaa devor bilan o'rab olinib, devor yodgorlikning 3 tomonida saqlanib qolgan. Sharqiy devor o'zunligi 120 m, shimol qismidagi devor 412 m, g'arbiy

¹⁷ Толстов 1948

¹⁸ Рапорт, Лапиров-Скобло 1963, 141-156 бетлар.

¹⁹ Вактурская, Варобьева 1952, 630 бет.

²⁰(Бижанов 1967, 5-9 бетлар).

devor esa 260 m. Sharqiy va g'arbiy devorning pastki qismida paxsa devor mavjud bo'lib uning balandligi 6, 1 m. Shimoliy va g'arbiy tomondagi devorda aylana shaklda bo'ri joylashgan bo'lib ,devorda yon tomonga usib chiqishi 5-6m. Bo'riklar o'rtasidagi masofa 48-53m. Yodgorlikning g'arbiy devor o'rtasida darvoza joylashgan bo'lib, darvoza oldi murakkab labirint bilan mustaxkamlangan. Yodgorlikdan mudofaa devori to'zilishini o'rganish 6,5 m maydonda ishlari olib borilgan. Bizgacha saklangan devor balandligi 1m, tashki devordan 3,92 m o'zoklikda ko'shimcha devor qurilgan. Uning balandligi 1,2m, kengligi 1m. Devor tosh plitadan va xom g'ishtdan tiklangan. (40x42x9x3sm). Mudofaa devor va ko'shimcha devor o'rtasida qum to'proklar bilan to'ldirilgan. Bunday tadqiqot ishlari g'arbiy, shimol tomondagi devorlarda olib borildi, natijada bir-birini takrorlaydigan devor va ko'shimcha devor o'rganildi. Yodgorlikning mudofaa devorining pastki qismi paxsadan tiklangan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida olingan materiallarga qarab yodgorlikning mudofaa devor qurilishi III davrdan iborat ekanligi aniqlandi.

tadqiqotlar olib borilmagan.³

Shunday qilib, mil. avv..I ming yillik o'rtalariga oid yodgorliklarda qisman bo'lsa xam arxeologik qazishma ishlari olib borilishi, jarayonida ayniqsa ularning mudofaa inshootlarining o'rganilishi natijasida boy faktik materiallar to'plangan. Bu esa o'z navbatida arxeik davr jamiyatining ijtimoyi- iqtisodiy, etno-madaniy rivojlanishi xaqida original materiallar beradi.

Xorazm vohasida keng miqyosda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida to'plangan va O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda arxeologik guruxlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida mil. avv. I ming yillik o'rtalariga oid noyob materiallar to'plandiki, ular o'sha davr jamiyatining ijtimoyi – iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonini, tarixiy-siyosiy harbiy vaziyatni, tarixiy jarayonlar okibatida vujudga kelgan mudofaa inshootlari tarixini o'rganishda muhim manbalar xisoblanadi.

³ Толстов С.П. Древни Хорезм М, Наука 1908 с 112-113.

XX asrning 30 yillari o'rtalariga qadar Xorazm vohasida antik davrga oid tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlari olib borilmasdan asosan yodgorliklarning o'rta asr madaniy qatlamlari o'rganilgan holos. (Mizdahqan, Zamaxshar, Kuhna Urganch). Xorazm vohasi hududidagi arxeologik obidalarni ilmiy jihatdan ro'yxatga olish, ularni memoriy – topografik to'zilishi va rejalashtirilishini tasvirlab Xorazm arxeologiya xaritasiga joylashtirish ishini A. I. Terenojkin boshlab berdi. 1937 yil A.I. Terenojkin Amudaryoning o'ng sohilida Beruniy va To'rtko'l tumanlari xududida arxeologik qidiruv ishlarini Yonboshqal'a, Pilqal'a, Qizilqal'alarning antik davrga oid ekanligini aniqlab Teshikqal'a, Norinjon va Bo'rgutqal'ada olib borib, o'rta asrga oid madaniy qatlamlarni o'rgandi ¹ . 1937-1940 yillarda S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspedisiya xodimlarining Xorazm vohasidagi tariiy obidalarni ro'yxatga olish va ularda arxeologik tadqiqotlar olib borishi natijasida 400 dan ziyod arxeologik yodgorliklar ro'yxatga olinib, arxeologik xaritaga joylashtirildi. Afsuski, Sho'rolar hokimiyatining paxtachilikni rivojlantirish sohasidagi siyosati natijasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida bu esa ko'p sonli tarixiy obidalarning yo'q qilinishiga olib keldi. Xorazm vohasida antik davr shahar va qishloqlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida to'plangan va olingan yangi ashyolarning asosida kishlok va shaharlarning mudofaa inshootlarini o'rganilish tarixini arxeologik ashyolar asosida ko'rib chiqamiz. Amudaryoning o'ng soxili xududida antik davrga oid yodgorliklar:

1.Yonboshqal'a (Jonbosqal'a) – Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi Yonboshqal'a fermer xo'jaligi hududida Sulton Uvays tog'ining sharqiy etagida Aqchadaryo o'zanidagi qiyalikda qurilgan.

Yodgorlik 1939 yilda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya - etnografiya ekspedisiyasi xodimlari tamonidan topilib 1940,1946 yillarda qazish ishlari olib borilgan. Yodgorlikning rejalashtirilishi to'g'ribo'rchak shaklda 200 x 170m, ya'ni 3,4 ga qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, ular o'rtasidagi yulak kengligi 2,80 m. Tashqi devor qalinligi 1,20 m, ichki devor esa

¹ Тереножкин А.И. Археологические разведени в Хорезми . В.Д.И №4 М. Наука 1940.

1m, umumiy devor qalinligi 5 m balandligi 5 – 10 m. Mudofaa devorining pastki qismi paxsadan tiklangan bo'lib, undagi yulakning yukori qismi qismi svod shaklida yopilgan, Paxsa devor poydevorga qurilgan, qo'shimcha devor-protexiyzma mavjud emas, bu devorning balandligi 1,6 m. Devorda shinaklar mavjud emas, paxsa devor ustiga g'ishtdan devor qurilgan, ochiq holatda yo'lak mavjud. Devorda ikki qatorli shaxmat uslubda kamon o'qi uchli shinaklar joylashgan. Shinaklar yo'nalishi yon tomonga egri holda, devor bo'rchaklari uch shinak bo'lib yon va to'g'ri yo'nalgan. Shinaklar o'rtasidagi oraliq maydoni 1,20 m, ichki tomonda kenglik 18-20 sm, tashki tomonda esa 0,75 m, ichki qismi samon loy bilan shuvalgan. Shinaklarning pastki qismi trapesiya shaklida, tashqari tomoni esa 0,75 m. Paxsa devordan keyingi qurilgan devor to'g'ri tomonli g'ishtlar shaxmat uslubida quyilgan 40-40-10 sm, ular yon va pastki qismlarida 0,3- 0,5 sm loy qatlami mavjud, g'ishtlarda aylana, yarim aylana, ikki yonma-yon yo'nalgan to'g'ri chiziq va turli belgilarga ega bo'lgan tamg'alar uchraydi. Shimoliy devor markazida yagona darvoza joylashgan bo'lib, bir necha aylanma daxlizga ega bo'lgan "Labirint" bilan mustahkamlangan. Inshoat to'g'ri bo'rchak shakliga, o'zunligi 52 m, kengligi 20 m, qirish qismi 3,5 m devordan yon tomonga usib chiqishi 18 m labirint devori yo'lakga ega, devor balandligi qal'a devori balandligi qal'a devori bilan teng, umumiy maydoni 0,1 ga. Labirint devori ham ma'lum masofada joylashgan kamon uqi uchli shinaklarga ega. Qal'a devori bo'rlarga ega emas, lekin ko'p sonli shinaklar mavjud. Devor va devor bo'rchaklaridagi shinaklar bo'rij vazifasini bajargan. Darvozadan to'g'ri tomonga kengligi 30 m utgan bo'lib, ichki qismini ikki mahallaga ajratgan, har bir mahalla 200 ta yaqin turli hajmdagi uy xonalari joylashgan. Yodgorlik ibodatxonaga ega, lekin ark mavjud emas. Arxeologik ashyolar asosida yodgorlik mil. av. IV asrda qurilgan bo'lib, miloddan IV asrigacha madaniy hayot bo'lgan.

II.Qo'yqirilgan qal'a – To'rtko'l shahridan 12 km shimoli sharqda joylashgan. Rejalashtirilishi aylana shaklda, devor bilan o'rab olingan, umumiy hajmi – 86,5 m 0,6 ga . Yodgorlikning markaziy qismida 2 qavatli inshoat qurilgan, aylana holda, 44.4 m, inshoatdan 14,5 m o'zoqlikda ikki qatorli mudofaa devor qurilgan. Devor

o'z navbatida to'qqizta bo'rga ega, qirish qismi sharqiy devorda joylashgan. Darvoza bir necha aylanma yo'laklarga ega bo'lib, "Labirint"ga ega to'g'ribo'rchak shaklda yon tomonga usib chiqishi 18 m, ikki yon tomoni yarim aylanal bo'rg bilan kuchaytirilgan umumiy hajmi 0,3 ga. Qal'a xandak bilan o'rab olinib, kengligi 15 m, chuqurligi 3 m. Markaziy inshootning birinchi qavati 8 xonadan iborat bo'lib, uning balandligi 8,5 m. Tashqi devor avval paxsadan, keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklangan, qalinligi 7,2 m. Uy xonalarini ajratgan devor 0,6 – 1,9 m paxsa keyin xom g'ishtdan qurilgan. Uy xonalari balandligi 3,6 m. Ikkinchi qavat yopiq yo'lak orqali davom etib, devorlari nayza o'qi shinaklarga ega. Sharqiy tomondan pandus orqali markaziy inshootga qirilgan bo'lib ikkinchi qavatda joylashgan. Bo'rglar yon tomonga emas, balki inshoot devoridan birmuncha yuqoriga usib chiqqan. Darvoza tashqi devorning sharqiy tomonida joylashgan. Yodgorlik S.P. Tolstov raxbarligida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilib, 1951 – 1957 yillarda qazish ishlari olib borildi va olingan ashyolarga qarab, birinchi qavat mil. avv IV asrlarga oidligi aniqlangan. Devor yaqinidan kengligi 10 metr keladigan xandak utgan. Yodgorlikda madaniy hayot milodiy IV asrda barxam topgan.²¹

III. Bozorqal'a—Mil.av.IV asrda madaniy hayot davom etib, arxaik davrdagi tarxi saklanib qolgan bo'lib, umumiy maydoni 600-550 m, ya'ni 33,6 ga. Antik davrda paxsa devor ustiga xom g'ishtdan qurilgan bo'lib ular urtasidan kengligi 2,30 yulak utgan. Devor yarim aylanal bo'rglarga ega, ular o'rtasidagi masofa 30-50 m, kengligi 5,5 m, o'zunligi 6,5 m bo'lgan(jami 37). Shahar darvozasi shimoliy qismidagi devor markazida joylashgan, labirintga ega emas, lekin ikki yon tomondan aylanal bo'rglar bilan mustaxkamlangan. Shimoli-sharqiy bo'rchagida ark- a'lo joylashgan bo'lib, to'g'ribo'rchak holda uning hajmi 120-120 m, devor balandligi 4 m, pastki qismi qalinligi 8,5- 9 m. Ark darvozasi g'arbiy devor o'rtasida bo'lib , murakkab inshoot bilan mustaxkamlangan (22-17 m). Murakkab inshoot yarim aylanal bo'rglar bilan mustahkamlangan. Devor va bo'rglar nayza

²¹ Кой- крылган кала. М.Наука, 1967.

o'qi uchli shinaklar bilan kuchaytirilgan bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 1,6-2 m, ularning tashqi tomondagi hajmi 1,2 ichki tomonda esa 0,60 sm. Bozorqal'a tarixi ikki qurilish davridan iborat bo'lgan. Mil. avv VI milodiy IV asrgacha shaharda madaniy hayot davom etgan.

IV.Guldursin – Qirqqiz kanali sug'orish tizimida joylashgan bo'lib, rejalashtirilishi noto'g'ri to'rtbo'rchak shaklda tekislikka qurilgan, umumiy maydon 620-500 m ya'ni 31 ga. Yodgorlik ikki qator mulofa devor bilan o'rab olinib, avval paxsadan, keyinchalik to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. Shaharda ark-a'lo sezilmaydi, ichki to'zilikida jamoat binolari qolidiqlari tepalik sifatida mavjud emas. Darvoza janubi- sharqiy qismidagi devor o'rtasida joylashgan, murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Devor o'rtasidan 2,10 m yo'lak o'tgan. Milodiy I-II asrlarda tashqi devor yaqinidan qo'shimcha devor qurilgan. Devorda yarim aylana bo'riklar bo'lib ular o'rtasidagi masofa 55 m. Yodgorlik miloddan avvalgi IV asrda qurilgan bo'lib milodiy IV-V asrgacha hayot davom etgan.

V.To'proqqal'a (Ellikqal'a) – to'g'ribo'rchak shaklda 500-350 m, qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, balandligi 2-8 m.Devor bo'rchaklarida to'rt tomonida teng va devor bo'ylab to'g'ribo'rchakli bo'riklar kuchaytirilgan va bo'riklar dastlab paxsadan keyinchalik, ochiq yo'lakli devor bilan xom g'ishtdan tiklangan. Yuqori qavatdagi devorda nayza o'qi uchli shinaklar mavjud. Janubiy devor o'rtasida darvoza joylashgan. Murakkab inshoot bilan kuchaytirilgan. Shimoli-garbiy bo'rchakda ark joylashgan, paxsa bloklari bilan qurilgan, balandligi 14 m. Darvozadan to'g'riga kengligi 9 metrli ko'cha o'tgan bo'lib, shahar ichki qismini ikki mahallaga ajratgan. Shimoliy-g'arbiy tomondagi bo'rchakni saroy egallab olgan, hajmi 80-80 m. Yodgorlik mil. avv.v IV-asrda qurilgan bo'lib, miloddan VII-VIII asrlarida barxam topgan.

VI.Pilqal'a (Filqal'a) - Beruniy-Nukus yo'lidan 1,5 km o'zoklikda joylashgan . VIII asrda Xorazmga kelgan arab tarixchisi Taboriy shaharni kayd etgan. Yodgorlik to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar A.I.Terenoshkin tadqiqotlaridan ma'lum. S.P.Tolstov fikricha Pilqal'a miloddan II-III asrlarida qurilgan. Qal'aning rejalashtirilishi to'rt tomoni teng bo'lib 220-220 m. Qal'a

qadimda mudofaa ikki katorli devor bilan o'rab olinib, xom g'ishtdan tiklangan(40x40x10 sm). Tashqi devor aylana bo'rlarga ega. Devorning pastki qismi paxsadan tiklangan bo'lib qalinligi 6 m, balandligi 2 m. Filqal'aning qurilishi Ayozaqal'a I me'moriy topografik-qurilishiga o'xshaydi. Mudofaa devori bo'rchagida bo'rlar "qaldirg'och dumini hosil qilgan". Yodgorlikning atrofini suvga to'lgan ko'l o'rab olgan. Qal'a yagona darvozaga ega bo'lib, tashqi devorda joylashgan. Yodgorlik mil. avv. IV asrga oidligi aniqlangan.

VII.Qo'rg'oshingal'a –Yodgorlikning tarxi to'g'ribo'rchak shaklda qurilgan (132- 89,2 m), qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan. Mudofaa devorining saqlanib qolgan balandligi 14-16 m. Tashqi devor qalinligi 2,35 m,ichki devorniki esa 2,05- 2,20 m. Mudofaa devor o'rtasidagi yo'lak kengligi2,35 m. Tashqi va ichki devorning pastki qismi paxsadan qurilgan bo'lib uning balandligi 1,52 m, undan keyin xom g'ishtdan devor tiklangan. (40-41 x 10-11 sm.) Mudofaa devorda ikki xil yarim aylana va to'g'ri bo'rchakli bo'rlar mavjud. Bo'rlar o'rtasidagi masofaa hajmi turlicha, ya'ni shimoli-sharq tomondagi devordagi bo'rlar o'rtasida 27-37 m., janubi- sharq tomondagi devor bo'rlari o'rtasidagi maydon 6-31 m, devordan yon usib chiqishi 7,6-8 m, kengligi 6,8-8,4 m. Mudofaa devor bo'rlarida nayza o'qi uchli shinaklar joylashgan. Shinaklar o'rtasidagi maydon 1,9 m kengligi 0,24 sm. Yodgorlikning qirish qismidagi bo'rlar aylana shaklida qurilgan. Yodgorlik mil. av. IV-milodiy II asr bilan belgilangan.

VIII.Ayozaqal'a-3-rejasi turtbo'rchak shaklida 250-x180 m, ya'ni 4,5 ga ikki qatorli devor bilan o'rab olingan yulak kengligi –3m. o'z navbatida yarim aylanalik bo'rlarga, kengligi 7.5 m. Devor balandligi 4-6 m,bo'rlar xajmi 7-8 m, 6-8 m, 9,5-8 m. Bo'rlar o'rtasidagi masofaa 22-25 m. Devor va bo'rlarining pastki qismi paxsadan tiklangan.(bloklardan) 64x65 sm,90x70 sm,70 60x80 sm keyinchalik devor va bo'rlar xom g'ishtdan tiklangan (38x42x10 sm). Darvoza janubiy qismida joylashgan bo'lib, murakkab inshoot bilan kuchaytirilgan,uning balandligi 5 m.Yodgorlik mildiy I-IV asrlari bilan belgilangan. (Nerazik 1976)

IX.Tuqal'a-Nukus shaxrida 14 km shimoliy-g'arbiy tomondagi Taktau tepaligida joylashgan. Yodgorlik ikki qismdan iborat bo'lib,umumiy maydoni 8 ga.

Yodgorlikning saqlanib qolgan balandligi 11 m. 1946 yilda S.P.Tolstov tomonidan tekshirilgan 1952 yilda Yu.A.Rapoport ,S.A.Trudnovskaya raxbarligidagi arxeologik gurux 1959-1962 yillarda V.N.Yagodin ,A.V.Gudkova raxbarligidagi arxeologik guruxlar To'kqal'ada arxeologik qazish ishlarini olib bordi, natijada mil.av IV asrga oid ashyolar olingan. Yodgorlikning rejalashtirilishi turtbo'rchak shaklida 110x78 m. Qadimda devor 2,8-3,2 metr yulakli devor bilan o'rab olingan bo'lib,tashki devor kalinaligi 1,5 m.,ichki devor–1m. Tashki devor yarim aylanalil bo'rjlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi masofaa-28m. Bo'rjlar devordan yon tomonga usib chiqishi-7 m. Uning ichki qismida xona mavjud bo'lib, uning xajmi 3x5,5m. Devor bo'rchaklaridagi bo'rjlar shinaklarga ega bo'lib, yon tomoniga yunalgan , “ Kaldirgoch dumi “ shaklini eslatadi. Devor va bo'rjlar avval paxsadan keyichalik turt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. (40x40x10sm) Yodgorlik mil.av IV asrda qurilgan.

Gaurqal'a –Sulton Uvays tog'i tizmasida joylashgan. Yodgorlik Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi tomonidan topilgan va arxeologik xaritaga qiritilgan. 1952-1956 yillarda Yu.A.Rappoport Trudnovskayalar Gaurqal'ada arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Yodgorlikning mudofaa tizimi maxsus o'rganilgan emas. Yodgorlikning vujudga kelishi milodiy II asri bilan belgilangan. (Rappoport, Trudnovskaya 1958)

Mizdahqan-Xujayli tumani xududida balandlikka qurilgan bo'lib, ikki qatorli devor bilan o'rab olingan.

Rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'ribo'rchak shaklda, umumiy maydoni 46ga. Shaharning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi A.Yu.Yakubovskiy tomonidan amalga oshirildi asosan uning yukori madaniy katlami o'rganilgan . Mizdahqanning qurilishi mil.av IV asrga oidligi aniqlangan.

Xiva(Ichanqa'la)-Mil.av.IV asrda shaharning ichki qismida madaniy hayot davom etgan,xajmida o'zgarish sezilmaydi, maydoni 650x450m, ya'ni 26ga.Antik davrda shahar paxsa devori ustiga to'rt tomoni teng xom g'ishtdan devor quriladi.Devorning tashqi tomonidan qo'shimcha devor qurilib uning qalinligi 8-10 m.ni hosil qilgan.G'arbiy qismidagi devor markazida ark joylashib alohida devor

bilan o'rab olingan, uning qalinligi 5-6m..M.Mambetullayev raxbarligidagi arxeologik gurux shaharning vujudga kelishini va rivojlanishi tarixini o'rganish maqsadida qazish ishlarini olib bordi, natijada 10ta qurilish davri mavjudligi aniqlandi.1-qurilish davri-mil.av. V asrga oid bo'lib paxsa devor qurilgan bo'lib uning balandligi 0.85 m..Devor o'rtasidan yo'lak kengligi 2m.. Bu qurilish davrida devor qalinligi 2.10 m.,balandligi 1.5 m.Ichki devor qalinligi 1.70m, balandligi 1.5m.g'isht devor bilan qurilgan. Ichki devorda xam turt tomoni teng xom g'isht ishlatilgan,bo'lib, uning balandligi 1,5m. Demak bu davrda Xiva mudofaa devori balandligi 1,80-2m, kengligi esa 7-8m bo'lgan. Bo'rij devori xam xom g'ishtdan tiklangan bo'lib, devorda ishlatilgan xom g'isht xajmiga uxshaydi. Bu esa devor va bo'rij bir vaktida qurilganlitgini ko'rsatadi. Mil.av II asrdan boshlab, shaharda madaniy hayot inqirozi yuz berib,miloddan I asrigacha davom etgan. Uchinchi qurilish davri, Xiva shaxrida miloldiy I asridan boshlab, yuksalishi seziladi. Xivada xunarmandchilik va savdo usadi. G'arbiy devor markazida ark yanada kad ko'taradi. Shaharda madaniy hayot miloddan IV asrigacha davom etgan. Bu davrda shahar mudofaa devorida va bo'rijida keng ta'mirlash ishlari olib borilib, natijada devorning pastki qismi kalinligi 9m.bo'lgan. Mudofaa devor va bo'rijga tashki tomodan kushimcha devor qurilishi amalga oshirilgan. Bo'rij to'g'ribo'rchak shaklidan aylana holatga kelib qolgan. Shu bilan birga, mudofaa devor va bo'rij oldinida 3,20m. o'zoklikda kushimcha devor qurilgan. Bu albatta devorni bo'zadigan mashinalarga karshi muljallangan. Yodgorlikda IV asrning oxirida iqtisodiy-madaniy hayot inqirozi yuz bergan.

30.To'proqqal'a-Xiva shaxridan 17 km shimoliy-g'arbda joylashgan. 1958-1960 yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilgan va arxeologik xaritaga joylashtirilgan.¹ Keyinchalik M.S.Lapirova –Skoblo tomonidan To'proqqal'ada qisman qazish ishlari olib borilgan². 1973-1974 yillarda M.Mambetullayev raxbarligida gurux yodgorlikda arxeologik tadqiqot ishlari olib borgan. Yodgorlikning rejasi (167-170) turt tomoni teng . qadimda ikki qatorli

¹ Толстов,Ждлнко,Итина. 1963йил 22бет

² Лapirova,Скобло 1969,50б бет.

devor bilan o'rab olingan, saqlanib qolgan balandligi 3m. Janubiy-g'arbiy devorida bo'rlar qolgan devorlarda 4tadan turtbo'rchakli bo'rij mavjud. Bo'rijlarning devordan yon tomonga usib chiqishi 5,2m, kengligi 7m. Bo'rijlarning xona xajmi 1,75-1.99m, 2,4-2,6m. Bo'rlar o'rtasidagi masofaa 36m, shimoliy-sharq tomonidan bo'rlar o'rtasidagi masofaa esa 22-38m. Qal'a darvozasi janubiy-g'arbiy devor markazida joylashgan. Darvoza oldi to'g'ribo'rchakli labirint bilan mustaxkamlangan bo'lib,darvozadan yon tomonga usib chiqishi 11,5 m. Mudofaa devor yaqinidan xandak utgan kengligi 23-27m. Yodgorlikning mudofaa devori va bo'rijlarning qurilishini aniqlash maksadida qazish ishlari olib borilgan,natijada shu narsa aniqlandiki, qal'ani ikki qatorli devor o'rab olgan. Devor o'rtasidagi yulak kengligi 1.65-1.70m. Mudofaa devori xom g'isht bilan tiklangan(40x43x40-45x10-16sm) balandligi 3,3-3,5m . Ichki devor kalinligi 2,5m.. Tashki devor esa 2,9m. Ular o'rtasidagi kenglik 1,65-1,70m. Mudofaa devor va bo'rij tashki tomonidan kushimcha devor bilan koplangan. Uning balandligi 2,2-3m. Shaharning darvozasida bo'rij mavjud emas, balki murakkab labirint bilan mustaxkamlanib, bir aylanma yulak orqali shaharga dushmanning qirib kelishini osonlashtiradi. Yodgorlikning qurilishi mil.av IV-asrlar bilan belgilangan.³

Xazorasp –Mil.av. IVasrda yodgorlikning rejalashtirilishida o'zgarish yuz bermaydi,ya'ni (340x320) umumiy maydoni 10,8 ga. Yodgorlik Ya.G'.G'ulomov tomonidan ko'zdan kechirilgan va mil.av IV asrga oidligi aniqlandi. 1958-1960 yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlaridan M.G.Vorobyeva, M.S.Lapirova-Skoblo, Ye.Ye.Nerazik shaharning bir necha xududlarida arxeologik tadqiqot ishlarini olib borib, shaharning vujudga kelishini mil. av IV asr bilan belgilaganlar. 1996 yilda M.M.Mambetullayev raxbarligidagi arxeologik guruxi shaharning ichki qismida arxeologik qazish ishlarini olib bordi,natijada o'zunligi 15m. Paxsa devor o'rganildi, uning balandligi 2m., devor bo'ylab ichki tomonidan yo'lak o'tgan, kengligi 2.4m. Ichki devor kalinligi 1,5m, balandligi 2m paxsadan tiklangan tashki tomonidan kalinligi 1,50m, paxsa devor qurilgan natijada tashki tomonidan devor kalinligi 3,50m. Devsolgan devorning

³ Мамбетуллаев 1986-72 бетлар.

pastki qismida ichki tomonidan 30 sm balandlikda paxsa devor topildi. Mudofaa devor pastki poydevorgacha tadqiqot ishlari yetkazilmagan. Masjid ichkarisida olib borilgan arxeologik shurf olti metr chuqurlikkacha olib borildi. Pastki madaniy katlamdan olingan arxeologik ashyolar shaharning vujudga kelishini mil.av VI asrlarga oid ekanligini isbotlamokda. Shurfning pastki kismidagi birinchi madaniy katlam qurilish mudofaa devorining birinchi qurilish davriga to'g'ri keladi.

I qurilish davrida Xazorap shahari ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, ular o'rtasida 2m. yo'lak bo'lgan. Mudofaa devorning umumiy kalingligi 7m. Mil.av VI-V asrlarga oid.

II qurilish davri paxsa devor ustiga xom g'ishtdan 1,5m balandligida devor qurilgan bo'lib, xom g'ishtning xajmi 45x45x10, 44x44x8sm. G'ishtlar shaxmat usulida qurilgan. G'ishtning yon va o'rta qismida loy quyilgan uning kalingligi 0,2-0,5sm. G'ishtning pastki qismida turli xilda belgilar uchraydi(aylana,to'g'ri chizik, nukta, yarim aylana). Ichki devorda xam shu xajmda xom g'isht quyilgan. Bu qurilgan davrda yulak kengligi o'zgarish yuz bermaydi. Bu davrda shahar devorining balandligi 3,5m, yulak kengligi –2m, Ichki devor kalinligi 1,5m. Shahar mudofaa devori kalinligida o'zgarish yuz bermaydi,ya'ni –7m. Bu qurilish davri mil. avv.. III asrlarga oid bo'lgan. Bu davrda shahar ichkarisida ark paydo bo'lgan, madaniy hayot shaharning sharqiy-janubiy, g'arbiy qismida mavjud bo'lgan. Shahar ichkarisining barcha qismida madaniy hayot birdaniga paydo bo'lmagan albatta. Afsuski, shahar ichkarisida o'zluksiz arxeologik tadqiqotlarni olib borish, u yerdagi madaniy katlamni o'rganish imkoniyati yuk, chunki shahar ichkarisida aholi zich joylashgan.

Tuproqal'a (Shovot)-Anbar-Manoq qishlog'idagi Xorazm fermer xo'jaligi xududida tekislikka joylashgan.Yodgorlikning tarxi aylana shaklda,umumiy maydoni- 4ga.Yodgorlik qadimda mudofaa devor bilan o'rab olinib,yarim aylana bo'rlarga ega bo'lgan.Shaharning ichki qismida jamoat binolari qoldiqlari sezilmaydi,ark-a'lo mavjud emas.Shahar shimoliy va janubiy tomonidan darvozalarga ega. 1999-2000 yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologiya,tarix va falsafa bo'limning arxeologiya guruxi To'prokka'ada qazish

ishlarini olib bordi. Yodgorlikning mudofaa tizimi tarixini o'rganish maksadida shimoliy-sharqiy qismidagi devorda qazish ishlari amalga oshirildi, natijada mudofaa devorining ustki qismi turt tomoni teng xom g'ishtdan qurilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, devorning tashki tomonidagi yarim aylanali bo'rlar oralig'ida tozalash ishlari olib borildi, natijada mudofaa maydoni 22m, bo'rnining devordan yon tomonga chiqishi 5,25-6,25m uning ichki qismida to'g'ri bo'rchakli xonaga ega bo'lib, xajmi 2,21-2,62x7,07-7,22m. Devor va bo'rij avval paxsadan keyinchalik turt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. (40x40x10sm,41x41x12sm).

Arxeologik ashyolar To'prokqal'aning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi uch qurilish davridan iborat ekanligini yorqin tasvirlaydi. I qurilish davri mil.av.V-IV asrlar.Bu davrda qal'a paxsa devor bilan o'rab olingan bo'lib, yulak va yarim aylanali bo'rlarga ega bo'lgan.

II qurilish davri mil. avv.. III-I asrlar paxsa devor ustiga turt tomoni teng xom g'ishtli devor qurilgan. Bunday xajmdagi g'isht bo'rij qurilishda xam ishlatilgan. Qal'aning ichki qismida devor bo'ylab uy xonalari qurilgan.

III qurilish davri milodiy I-IV asrlar Bu qurilish davrida g'isht devor ustiga xom g'isht aralash paxsa devor qurilgan. Milodiy IV asrga kelib, qal'ada madaniy hayot barxam topgan.

II – Bob. Xorazmda ilk davlatchilik asoslarining shakllanishi va unda shahar madaniyatining o'rni.

II.1. Xorazmda ilk davlatchilik an'alarining vujudga kelishi muammosi va arxaik davr shaharlarining moddiy madaniyati.

O'rta Osiyoda ilk davlatchilik muammosining tarixshunosligi natijalariga ko'ra, dastlab ushbu masalaning o'rganilishi mintaqadagi ilk davlatlarning vujudga kelishining tarixiy sanasi–xronologiyasi va hududiy joylashuvi hamda hududiy chegaralarini aniqlash bilan bog'langan bo'lib, bu yo'nalishda quyidagi masalalar muhim ahamiyat kasb etgan:

1. Qadimgi Xorazm yoki “Katta Xorazm” davlatining tarixiy geografiyasi va hududiy joylashishini aniqlash.
2. “Avesto”da tilga olingan viloyatlar siyosiy birlashmasi Aryoshayyonaning hududiy tarkibini tahlil qilish.

Ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalarini umumlashtirish sovet tarixshunosligida XX asrning 30-yillarida boshlangan. S.P. Tolstovning 1938 yilda chop etilgan “O'rta Osiyo qadimgi tarixining asosiy savollari” degan maqolasida ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalari tahlil qilingan edi²². Shu davrgacha mazkur masala sovet tarixshunosligida deyarli o'rganilmagan. Bu borada tadqiqotchilar G'arb adabiyotlarida mavjud nazariyalarni umumlashtirib, muammo yuzasidan o'z fikrlarini bildirganlar.

XX asrning 50-yillarida G'arb olimlari V.B. Xenning va I. Gershevichlar 30-yillarda fanga joriy etilgan I. Markvartning Xorazm davlati to'g'risidagi g'oyasini yangi asoslarda rivojlantirib, ushbu davlat Ahamoniylar bosqiniga qadar Gerirud-Tajan daryosi vohasida Marv va Xiroat atroflaridagi hududlarni birlashtirgan, deb yozganlar. Ushbu xulosaga ko'ra, “Katta Xorazm” davlati tarkibiga Marg'iyona, Ariya va Parfiya viloyatlari qirgan²³. Bunday yondashuv ilmiy adabiyotlarda bir qator shubhalarga olib keldi.

²² Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // Вопросы древней истории. – 1938. – №1. – С. 176-203.

²³ Henning W.B. Zoroaster: Politician or Witch... – P. 43; Gershevitch I. The Avestan hymn to Mithra. – P. 14.

Shu asr 60-yillarining boshlarida “Katta Xorazm” masalasi tarixshunosligi va muammoga yondashuv V.A. Livshis tomonidan tahlil qilingan²⁴. 70-yillarga kelib, mavzu qizg’in munozaraga aylanib, I.M. Dyakonov, R. Fray, I.V. Pyankov, M.G. Vorobyeva tadqiqotlarida o’z aksini topgan²⁵.

O’rta Osiyo qadimgi davlatchiligi to’g’risida yozgan G’arb tadqiqotchilarining o’zlari hych qachon O’rta Osiyoda bo’lmaganlar. Shuning uchun ham, ular mintaqaning tarixiy geografiyasi haqida to’liq tasavvurga ega bo’lmasdan turib fikr bildirganlar, faqat tarqoq yozma ma’lumotlardan foydalanib, masalani aniq yoritish murakkab masala bo’lib, muammo ilmiy bahslarga olib kelgan.

XX asr o’rtalarida mavzu M.M. Dyakonov tomonidan tahlil qilingan. Qadimshunos olimning yozishicha, Ahamoniylar davrigacha O’rta Osiyoda yirik davlat uyushmalari rivojlanmagan bo’lib, ilk davlatlar kichik vohalarda tashkil topgan. Tadqiqotchining fikriga ko’ra, “Avesto” keng hududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, bu jamiyat urug’-qabila munosabatlari an’analarini o’zida saqlagan²⁶.

XX asrning o’rtalariga qadar G’arb va sovet tarixshunosligida qadimgi yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Ktesiy) ma’lumotlarining tahlili muhim ahamiyatga ega bo’lib keldi. Ushbu manbalar O’rta Osiyo elatlarining urf-odatlarini, turmush tarzi, diniy e’tiqodi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va siyosiy tarixi to’g’risida ayrim ma’lumotlardan iborat xolos.

S.P. Tolstov mil. avv. VIII-VII asrlarda Xorazmda yirik kanallarning mavjudligini qudratli markaziy davlat siyosati bilan bog’lab, Xorazmda davlat

²⁴ История таджикского народа. – М., 1963. Т. 1. – С. 151-154.

²⁵ Дьяконов И.М., Восточный Иран до Кира ... – С. 122-154; Фрай Р. Наследие Ирана ... – С. 468; Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // Вестник древней истории. – 1972. – № 2. – С. 3-21; Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 38-42.

²⁶ Дьяконов М.М. Сложение классового общества в Северной Бактрии ... – С. 121-135; Ёша муаллиф. Древняя Бактрия // По следам древних культур. От Волги до Тихого океана. – М.: Культпросиздат, 1954. – С. 305-334.

tashkiloti bo'lmaganda, bunday yirik va uzun kanallarni qazib va saqlab bo'lmas edi, degan xulosaga kelgan²⁷.

V.M. Masson "Xorazmda yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarda barpo etilgan deb, mil. avv. IX-VIII asrlarda Xorazmda sodda dehqonchilik-chorvachilik madaniyati (Amirobod madaniyati) rivoj topgan va mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab, Xorazm tuprog'ida o'sha davrga oid paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa devorlari topilmagan, turar joylar yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, sopol idishlar qo'lda yasalgan", - deb ta'kidlagan²⁸. Bunday xulosalar Xorazm hududlarida davlatning juda erta vujudga kelganligini inkor etgan.

Ushbu nazariyaga ko'ra, shu davr tarixshunosligida xorazmliklar dastlab O'rta Osiyoning janubida istiqomat qilganlar, qadimgi forslarning harbiy yurishlari natijasida, xorazmliklar janubdan Quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqarilgan deb, faraz qilingan.

Demak, asosiy xulosalar shundan iboratki, bunday ishlar davlatchilik sharoitida amalga oshirilgan, kanallarni faqat qullar qazishi mumkin bo'lgan, "hyech qanaqa davlat erkin jamoatchilarni bunday g'oyat katta yer ishlarini bajarishga majbur etolmas edi"²⁹. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tarixida irrigasiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan, irrigasiya ishlarini amalga oshirishga jamoatchilar keng jalb qilingan, deb xulosa chiqarilgan³⁰.

Turli uy-joylar va qabrlarda topib tekshirilgan buyumlar hamda xazinalar jamiyatdagi mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish (harbiy zodagonlar, jamoa zodagonlari, oddiy jamoatchilar, qaram kishilar, asirlar-qullar) jarayonlarining ko'rsatkichi bo'lib, V.M. Massonning fikriga ko'ra, jamiyatda qarama-qarshi

²⁷ Толстов С.П. Древний Хорезм ... – С. 341; Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации ... – С. 103.

²⁸ Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы ... – С. 126.

²⁹ Очерки истории СССР ... – С. 244; Арциховский А.В. Ўша асар... – Б. 176.

³⁰ Андрианов Б.В., Мухамеджанов А.Р. Ирригация и ее роль в социально-экономической истории древней и средневековой истории Средней Азии // Общественные науки в Узбекистане. – 1980. – № 11. – С. 35-42.

sinflarning paydo bo'lganligi, ya'ni ilk sinfiy jamiyatning shakllanganligini tasdiqlaydi³¹.

XX asr 80-yillarining o'rtalarida O'rta Osiyodagi ilk davlatlar masalasini M.A. Dandamayev, V.I. Sarianidi va G.A. Koshelenkolar tahlil qilganlar.

Ular Aryonam Vayjo (qadimgi Xorazm) to'g'risidagi I. Markvart, qadimshunoslar S.P. Tolstov va M.M. Dyakonovlarning xulosalari hamda "Katta Xorazm" haqidagi V.B. Xenning va I. Gershevichlarning nazariyalariga o'z e'tiborini qaratgan³².

M.A. Dandamayev mil. avv. VIII-VI asrlarda Xorazmda yirik quldorlik davlatining rivojlanganligi haqidagi fikrlarga ham qarshi chiqib, quyidagi xulosalarni chiqargan: "Ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda jadal rivojlangan shahar hayoti va mustahkam davlat uyushmalari noma'lum bo'lib, hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralmagan edi. Ilk shaharlar O'rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida shakllana boshlagan. Ular So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyona markazlari bo'lgan. Mil. avv. VII asrda ushbu viloyatlarning hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan nisbatan yuksak dehqonchilik madaniyati shakllangan, ammo yirik davlat uyushmalari vujudga kelmagan edi"³³. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, M.A. Dandamayev O'rta Osiyoda to'plangan arxeologik ma'lumotlarni yetarli darajada tahlil qilmagan.

Mintaqa hududlariga tegishli "qadim Xorazm sivilizasiyasi" tushunchasini dastlab S.P. Tolstov fanga tatbiq qilgan. Mustaqillik yillarida sobiq davrda O'rta Osiyo hududlarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari inkor etilmadi va ijobiy baholandi, misol uchun, Xorazmdagi kashfiyotlar to'g'risida quyidagi xulosalar mavjud: "Olimlarning ellik yildan ziyod olib borgan qahramonona mehnat mahsulotlari "Труды Хорезмской экспедиции"ning 16 ta jildida, "Материалы Хорезмской экспедиции"ning 9 ta juzida, "Низовья Сырдарии и

³¹ Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ ... – С. 184, рис. 22; Ўша муаллиф. Эпоха первых цивилизаций // Вопросы истории. – 1986. – № 3. – С. 49-63..

³² Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: Наука, 1985. – С. 28-31.

³³ Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы... – С. 32.

древности”ning 5 ta juzida, shuningdek yuzlab ilmiy maqolalarda, monografiyalar va to’plamlarda yoritildi”³⁴.

Ana shu olimlarning izlanishlari tufayli O’rta Osiyoda ilk davlatchilik tarixi XX asrning 90-yillarida yangi asoslarda tadqiq qilindi.

I.V. Pyankov “Katta Xorazm” davlati masalasini ko’rib chiqib, bu borada I. Markvart, V. Xenning, I. Gershevich, S.P. Tolstov, I.M. Dyakonov, M.G. Vorobyeva, I.N. Xlopin va boshqa tadqiqotchilarning xulosalarini tahlil qilgan. Yunon tarixchisi Gekateyning xabarlariga asoslanib, olim xorazmliklarning hududiy joylashishini Turkman-Xuroson tog’ oldi yerlari bilan bog’lab, xorazmliklar Ahamoniylar davrida janubdan quyi yerlarida mavjudligini rad etgan³⁵.

A.A. Asqarovning fikriga ko’ra, “xorasmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan janubda, Areyadan sharqda Hyerirud va Hilmend daryolarining yuqori havzasida, hozirgi Hirot vodiysida bo’lgan”³⁶.

Tadqiqotchi S.B. Bolelov, O’rta Amudaryo va Xorazm hududlariga Baqtriya aholisi vakillarining ko’chib kelganligi to’g’risidagi xulosaga³⁷ qo’shilib, ushbu voqeya miloddan avvalgi VI asrning birinchi yarmida sodir bo’lgan, deb yozgan³⁸. V.N. Yagodinning ta’kidlashicha, Shimoliy Baqtriya aholisining Xorazmga migrasiyasi haqida Xumbuztepada topib tekshirilgan arxeologik ma’lumotlar dalolat beradi³⁹.

Bizning fikrimizcha, Xorazm vohasida xo’jalik yuritgan qabilalar daryo irmoqlari va undan chiqarilgan sun’iy inshootlar sohili yaqinlarida, shaharlar qurib

³⁴ Қадим Хоразм цивилизацияси // Фан ва турмуш. – 2006. – № 1-3. – Б. 5.; Қадимги Хоразм давлати мавзусига бағишланган янги адабиётлардан, қаранг: Ягодин В.Н. Древнейшая государственность и проблема “Большого Хорезма” (1 цикл) // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – 2007. – № 1. – С. 75-79.

³⁵ Пьянков И.В. Древнейшие государственные образования ... – С. 239-241; Ўша муаллиф. Ктесий о Зороастре ... – С. 64. Ўша муаллиф. Хорасмии Гекатея Милетского ... – С. 16-18.

³⁶ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – Б. 113.

³⁷ Сағдуллаев А.С. Маргиана и Бактрия... – С. 17.

³⁸ Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбуз-тепе. // Общественные науки в Узбекистане. – 1999. – № 9-10. – С. 90.

³⁹ Ягодин В.Н. Древнейшая государственность и проблема “Большого Хорезма” (2 цикл) // Вестник Каракалпакского отделения АН РУз. – 2007. – № 2. – С. 71.

mayda dehqonchilik vohalarida istiqomat qilganlar. Xorazm vohasi aholisi Ahamoniylar kelgunga qadar, harbiy-siyosiy vaziyat taqozosi bilan Ko'zaliqir kabi shahar-davlatlarni bunyod etgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo bu fikrimiz ancha bahsli masala bo'lib, chuqur arxeologik tadqiqotlarni talab etadi, xolos. Zero, xuddi shu davrda tashkil topgan siyosiy birlashma Charmonyap, Daudon, Daryoliq, Kaltaminor, Polvonyap, Amirobod va Xazorasp kabi sug'orish inshootlarini qurdirganki, ularning umumiy uzunligi 70 km. ni tashkil qilgan. Bunday katta hajmdagi sug'orish inshootlarini qurish, uning sohilidagi hududlarda katta va o'rta darajali shaharlarni qurish ishlari, markazlashgan davlat faoliyati bilan bog'liqligini yaqqol tasvirlaydi. So'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlarda Xorazmda ilk davlatchilik va qadimgi boshqaruv masalalariga yangicha yondashuvlar kuzatilmoqda.

Ikkidaryo oralig'i (Mesopotamiya) misolida shahar-davlatlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, ularning hududlarida bosh ibodatxona, ma'muriyat binolari, hunarmandchilik ustaxonalari, oziq-ovqat omborlari joylashgan.

V.M. Masson, V.I. Sarianidi, A.A. Asqarov, T.Sh. Shirinov va boshqa tadqiqotchilar ushbu nazariyaning tarafdorlari bo'lib, bronza davrida O'rta Osiyo janubida va Shimoliy Afg'onistonda (Oltintepa, Gonur, Togolok, Dashtli hamda Jarqo'ton misolida) shahar-davlatlar, "nomlar" vujudga kelganligini ta'kidlaganlar⁴⁰. V.I. Sarianidi Murg'ob vohasidagi bronza davri yodgorliklari misolida "Qadimgi Sharq podsholigi" degan savolni ro'yobga chiqardi⁴¹. Bizningcha, bu tarixiy atama noto'g'ri nomlangan, chunki "Sharq" tushunchasi juda keng.

⁴⁰ Массон В.М. Эпоха первых цивилизаций // Вопросы истории. – 1986. – № 3. – С. 49-63; Сарианиди В.И. Древности страны Маргуш. – Ашгабад: Ёлым, 1990. – С. 300-304; Аскарлов А.А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // Общественные науки в Узбекистане. – 1997. – № 3. – С. 65-76; Ширинов Т. Средняя Азия во II тысячелетии до н.э. и протозроатризм // История материальной культуры Узбекистана. – Самарканд, 2000. – Вып. 3. – С. 35-48.

⁴¹ Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. – Ашгабат: Ёлым, 2002. – 272 с.

So'nggi yillarda E.V. Rtveladze tarixiy sivilizasiyalar, davlatlar va qadimgi shaharlar kabi muammolarni tahlil qildi. Tadqiqotchi mintaqada davlatchilik shakllanishi va rivojlanishi jarayonini ikki davr bilan bog'lagan:

mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi, Jarqo'ton misolida, "nom" shaklidagi davlatga o'xshash tuzilmaning paydo bo'lishi;

mil. avv. I ming yillikning boshlari - mil. avv. 539 yil Baqtriya, "Katta Xorazm" va ko'chmanchilarning siyosiy konfederasiyalarining tashkil topishi⁴².

E.V. Rtveladze, A.X. Saidov, Ye.V. Abdullayevlar monografiyasida O'rta Osiyoda qadimgi huquqiy tizimlarning paydo bo'lishi, zardushtiylik huquqi va "Avesto"da huquqiy g'oyalar kabi masalalar yoritilgan⁴³. Tadqiqotchilar "Avesto"da tilga olingan jazo (o'lim jazosi, qamoqxonaga mahkum etish, jismoniy jazo, gunohni yuvish, qondoshlik o'chi) va dinga qarshi, shaxsga qarshi, hayvonlarga qarshi, axloqqa qarshi, tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlarni atroflicha tahlil qilganlar⁴⁴.

Qadimgi davlatchilik masalasi A.A. Asqarovning yangi tadqiqotlarida ham o'z aksini topib, ilk davlatlarning paydo bo'lishi sanasi, shart – sharoitlari, omillari va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan.

O'rta Osiyoda ilk davlatchilik muammosining o'rganilishi natijalari yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

– XX asrning 30-yillariga qadar G'arb tarixshunosligida asosan Baqtriya va Xorazm davlati masalasi tahlil topib, bahs-munozaralarga asos solgan;

sovet davri tarixshunosligida ushbu masala yozma va arxeologiya ma'lumotlarining qiyosiy tahlili asosida o'rganilgan bo'lib, bir guruh olimlar tomonidan Ahamoniylar davriga qadar O'rta Osiyoning janubida "Katta Xorazm" davlatining mavjudligi va Qadimgi Baqtriya davlatining rivojlanganligi tan olingan. Quyi Amudaryo hududlarida paydo bo'lgan Xorazm davlati to'g'risidagi g'oya ma'lum qarshiliklarga duch kelgan

⁴² Rtveladze Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси ... – Б. 48-49; Rtveladze Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии ... – С. 50-51.

⁴³ Rtveladze Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Кўрсатилган асар. – Б. 216-239.

⁴⁴ Ўша асар. – Б. 234-235.

bo'lib, hatto XXI asr bo'sag'asida chop etilgan maqolalarda Xorazm sivilizasiyasining shakllanishi mil. avv. VI- IV asrlar bilan bog'landi⁴⁵;

II.2. Antik davr Xorazm shaharlari va ularning davlatchilik an'analari rivojidagi o'rni hamda ularning moddiy-ma'naviy madaniyati.

Miloddan avvalgi V asr oxirlarida Xorazmning Markaziy Osiyo janubiy hududlari bilan iqtisodiy aloqalari to'liq shakllanadi va bu hududlar orqali Ahamoniylarning yirik savdo markazlari bilan aloqalar olib borilgan. Miloddan avvalgi IV asr birinchi yarmida Xorazmni Ahamoniylarning g'arbiy viloyatlari bilan bog'lovchi va Sariqamish hamda Uzboy orqali Kaspiy dengizga olib boruvchi suv yo'li yuzaga keldiki, bu aloqalar rivojlanib, butun miloddan avvalgi IV-II asrlar madaniy qiyofasiga ta'sir qildi. Bundan tashqari, Xorazmning o'z mustaqilligini yo'qotib Ahamoniylar tarkibiga qirishining o'zi ham bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keldiki, bu o'zgarishlar savdo-sotiq aloqalarining taraqqiy qilishiga ta'sir qilmasdan qolmasdi. Birinchidan, Xorazm juda yuksak madaniyat yaratgan Old Osiyo xalqlari ta'sir doirasiga tortildi, ikkinchidan kuchli markazlashgan hokimiyatning mavjudligi dehqonchilikning va unga bog'liq holda hunarmandchilikning rivojlanishiga olib keldi, uchinchidan, iqtisodiy sohalarda o'zaro tajriba almashish jarayoni, bu sohalarning yanada rivojlanishini ta'minladi; to'rtinchidan, xorazmliklarning Ahamoniylarning siyosiy jarayoniga tortilishi va ularning yurishlarida qatnashishlarida, dehqonchilik madaniyati yuksak taraqqiy qilgan Bobil va Misr, hunarmandchilik yuksak taraqqiy qilgan Yunoniston va Kichik Osiyo mamlakatlari Xorazmning xo'jalik va madaniy hayotiga, ayniqsa, hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiga ozgina bo'lsa ham, o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasdilar. Va nihoyat, eng asosiysi yagona ulkan hududda, yagona bozorning mavjudligi Xorazmning bu mamlakatlar bilan olib boradigan savdo-sotiq aloqalarining rivojida eng muhim omil bo'ldi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududida bu davrga oid shaharlar savdo markazlarining kam bo'lishini ko'rsatsa ham, bu shaharlardan topilgan

⁴⁵ Массон В.М. Цивилизация древнего Хорезма (этапы и пути самоидентификации) // ИМКУ. – Самарканд, 1999. – Вып. 30. – С. 89-90.

materiallarning o'ziyoq savdo-sotiq aloqalarining qanday darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid Ko'zaliqir, Qal'aliqir-1, Oybo'g'irqal'a va Dingilja yodgorliklaridan temir ishlash, kulolchilik ustaxonalari qoldiqlari topildi. Bundan tashqari, miloddan avvalgi V asrga oid sopol idishlarga nisbatan juda sifatliki, bu xol buyumlarning faqat ichki ehtiyoj uchun ishlab chiqarilmasdan, chetga chiqarish uchun mo'ljallanganligidan dalolat beradi. Dingilja yodgorligidan feruzadan marjon ishlash ustaxonasining topilishi esa yuqoridagi Xorazmdan chetga ko'plab feruza chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotning yana bir tasdig'idir⁴⁶. Shimoli-G'arbiy Turkmaniston hududida, ko'proq yuqori Uzboyning miloddan avvalgi IV asr va III-II asr yodgorliklarida ko'plab Xorazm sopol buyumlari uchraydi. Bundan tashqari bu hududga Xorazmdan bezak buyumlari va mayda tosh idishlar ham keltirilgan.

Umuman, VI-V asrlardagi jarayonlar Xorazmning miloddan avvalgi IV-milodiy IV asrlardagi taraqqiyotiga zamin bo'lgan. Xorazm bu davrda har tomonlama rivojlanib, o'z taraqqiyotining cho'qqisiga chiqadi.

Xorazmda miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlar savdo shaharlarining soni juda ko'paygan. Jonbosqal'a, Bozorqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayozqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Tuproqqal'a, Jildikqal'a, Xiva, Xazorasp va shu kabi shaharlar savdo markazlari bo'lib, bu yodgorliklardan topilgan materiallar, ayniqsa, marjon bezaklar ba'zi xulosalar chiqarish uchun imkon beradi. Topilgan marjonlarning ko'pchiligi chetdan – Suriya, Misr va Shimoliy Qora dengiz bo'ylaridan keltirilgan. Qo'yqirilganqal'adan topilgan ayol tasvirlangan va bolali maymun haykalchalari Hindistondan keltirilgan⁴⁷.

Ayniqsa, bu davrda Xorazmning ulkan Kushon imperiyasi tarkibiga qirishi uchun hatto uzoq Hindiston bilan ham savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish imkonini berdi.

Kushon davrida Buyuk Ipak yo'lining to'la shakllanib bo'lishi ham savdo-sotiq rivojiga turtki bo'ldi.

⁴⁶ Очерки истории Каракалпакской АССР. Т I, с.47

⁴⁷ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 127-128; 172; 371-бетлар

Miloddan avvalgi I asr, milodiy I asrdan boshlab Xorazm o'z tangasini zarb qila boshladiki, bu o'z navbatida, ichki savdoning rivojlanishiga imkon yaratdi.

Aynan Kushon davridan boshlab Xorazm yirik tranzit savdo markazlari-dan biriga aylangan.

Markaziy Osiyoning Amudaryo bo'yi hududlaridan va I-II asrlarda suv oqa boshlagan Uzboy orqali Hindistondan Kaspiy dengizga va hatto Kavkazorti orqali Qora dengiz bo'yiga savdo yo'li o'tgan. Uzboy qirg'oqlari bo'ylab Igdiqal'a tomon hind-kaspiy suv yo'li orqali to'xtovsiz savdo-sotiq aloqalari amalga oshirilgan⁴⁸. Masalan, Ichonlidepa va Qal'aliqir II yodgorliklarida olib borilgan arxeologik qazuv natijasida Kavkazorti hunarmandchilik markazlarida tayyorlangan kulolchilik buyumlari topilgan⁴⁹.

Xorazmning jahon xalqlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari tarixi, shubhasiz, savdo markazlari tarixidan ilgariroq boshlanadi. Chunonchi, arxeologik izlanishlar natijasida bunday aloqalarning ildizlari neolit davri kaltaminor madaniyatiga borib taqalishini allaqachon isbotlaganlar. Xorazm savdo markazlari, aniqrog'i, shaharlar esa ancha keyin, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragida vujudga kelganligi ham arxeologik ma'lumotlar orqali tasdiqlangan. Ammo savdo markazlarining vujudga kelishi bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar nihoyatda kengayib, o'z ta'siriga yanada ko'pdan-ko'p xalqlar va davlatlarni tortgan. Xususan, neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatidan topilgan zeb-ziynat buyumlarining faqat Qizil dengiz, Fors va Arab bo'g'ozlarida uchrovchi chig'anoqlardan yasalganligi, Volgabo'yi, Sibir va Qozog'iston hududlaridan topilgan zeb-ziynat buyumlarining esa faqat Amudaryoda uchraydigan chig'anoqlardan yasalganligi aloqalarning juda qadim zamonlardanoq ancha katta hududni o'z ta'sir doirasiga olganligini ko'rsatadi⁵⁰. Kaltaminor madaniyatining ta'sir doirasini kuzatadigan bo'lsak, uning ta'siri Orolbo'yidan to Xitoyning

⁴⁸ Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье. Города и каравансарай на трассах... с.44

⁴⁹ Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. Энциклопедический справочник: Древность и раннее средневековье. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 1999, с.23.

⁵⁰ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 78-82-бетлар.

Shinjon viloyati va Gobi cho'ligacha, yuqorida Janubiy Qozog'iston, Volgabo'yi va Janubiy Sibirgacha yoyilganini ko'ramiz.

Keyinchalik, Xorazmda shimol emas, balki janubning, ya'ni Qadimgi Sharq dehqonchilik markazlarining ta'siri kuchayib, buning oqibatida Xorazm hududida o'zlashtiruvchi xo'jalikdan asta-sekin ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishini kuzatamiz. Bronza davriga oid Tozabog'yop madaniyatidan eng dastlabki sug'orish qanallari izlari va Janubiy Turkmaniston hududiga xos uslubda ishlangan kulolchilik mahsulotlarining topilishi buning yaqqol dalilidir.

Xullas, bu aloqalarning hammasi Xorazm miloddan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq o'rta Sharqning qadimgi sivilizasiyalari olami bilan uzoq sovuq Shimolni bevosita bog'lovchi xalqa rolini o'ynay boshlaganligini va bu, keyinchalik, ayniksa yorqin tus olganligini ko'rsatadi. Arxeologik, etnografik, lingvistik ma'lumotlar miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda xorazmliklarning iqtisodiy-madaniy aloqalari yanada kengayib borayotganligini tasdiqlaydi. Endi u o'z ta'sir doirasiga Qora va Kaspiy dengizlari bo'ylarida yashovchi frank-kimmeriy va skif qabilalarini ham tortadi. Bu aloqalarning mavjudligini mashhur arxeolog va etnograf S.P.Tolstov arxeologik, etnografik, lingvistik, toponomik va onomastik dalillar bilan to'liq asoslab bergan⁵¹. So'nggi bronza va ilk temir davriga oid Amirobod madaniyatidan iqtisodiy-madaniy aloqalarning izlari yetarlicha topildi. Buning ustiga bu davrda jamiyat endi sivilizasiya chegarasida turadi. Savdo markazlarining vujudga kelishi uchun yana bir qadam tashlash kerak, xolos. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Xorazm o'z tarixining ana shu yangi davriga qirdi.

Miloddan avvalgi VII asr oxiri-VI asr boshlariga kelib Xorazm hududida ilk sinfiy jamiyat – quldorlik davlati vujudga keldi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi taraqqiyot bilan bog'liq bo'lib, bu o'rinda o'sha davrda vujudga kelgan yirik-yirik sug'orish qanallaridan foydalanish asosida rivoj topgan sug'orma dehqonchilik hal qiluvchi rol o'ynadi. Uzunligi 60-70 km ga cho'zilgan ulkan Gavxore va Chermonyob kanallari tarmog'i xuddi shu davrlarda qurib

⁵¹ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 93-96-бетлар.

bitkazildi. Xorazm tarixining bundan keyingi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan ilk savdo markazlari ham shu davrda paydo bo'ldi. S.P.Tolstov tomonidan o'rganilgan va "devorlari ichida aholi yashagan qadimiy shaharlar" madaniyati (bu termin hozir arxeologiya fanida deyarli ishlatilmaydi) deb atalgan bu davr shaharlari o'zining ulkanligi bilan ajralib turadi. Keyingi davrlardagi eng ulkan shaharlarning uzunligi yarim kilometrdan ham oshmagani holda, bu davr shaharlarining uzunliklari bir kilometrdan ham ortiq edi (masalan, shu davrga oid shaharlardan Qal'aliqir-1 ning o'lchami 1100/700 m, Ko'zaliqirning o'lchami 1000/400 m.)⁵² Katta Xorazm deb nomlanuvchi bu davlat Xorazm yerlaridan tashqari, yana Ariya, So'g'diyona, Parfiyani ham o'ziga birlashtirib olgan edi. Sinfy jamiyat paydo bo'lishi savdo markazlarining yanada rivojlanishi va ko'payishi uchun turtki bo'ldi. Jamiyatda ikkinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti ro'y berdi. Ya'ni aynan savdo markazlari, shaharlar hayoti uchun xos bo'lgan, uning rivojlanishiga yanada turtki bo'ladigan hunarmandchilik dehqonchilikdan alohida kasb bo'lib ajralib chiqdi. Katta Xorazm davlati savdo markazlari qatoriga Ko'zaliqir va Qal'aliqir-1 dan tashqari, Dingilja va Oybo'g'irqal'alarni ham qiritish mumkin. Ammo bu davlat uzoq yashamadi. Miloddan avvalgi VI asr oxirlarida Markaziy Osiyoda Eron Ahamoniylari hukmronligi o'rnatildi. Xorazm ham bu davlat tarkibiga qirib, uning o'lpondoriga aylandi. Uning ulkan Ahamoniylar davlati siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlariga tortilishi iqtisodiyotning yanada taraqqiy qilishiga va, o'z navbatida, tashqi savdo aloqalarining yanada rivojlanishiga olib keldi. Bu davrga oid hunarmandchilik mahsulotlari nihoyatda sifatli bo'lib, uning turlari ancha ko'paygan edi. Xorazmning butun Sharq bilan qilgan aloqasi natijasida Xorazm hunarmandchiligiga Old Osiyo badiiy madaniyatining ta'siri kuchaydi. 1996 yilda atroflicha o'rganilgan Xumbuztepa yodgorligi nainki yalpi Xorazmni, balki qo'shni o'lkalarni ham kulolchilik buyumlari bilan ta'minlovchi markaz bo'lgan ekan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Xorazmning Ahamoniylar davlati tarkibida

⁵² Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 101-бет.

bo'lishi uning tashqi va ichki savdo aloqalarini yanada kengaytirgan. Savdoda tanga-pul muomalaga qiritilishi ham shu davr bilan bog'liqdir.

Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm Ahamoniylardan mustaqil bo'lib ajralib chiqqan. Makedoniyalik Iskandar va salavkiylar davrida ham Xorazm davlati mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning yuksak darajada taraqqiy qilishiga va Xorazmning endi shakllanayotgan Buyuk Ipak yo'lidagi savdo-sotiq aloqalarida asosiy rol o'ynovchi markazga aylanishiga olib keldi. Nainki antik davrning, balki butun Xorazmning eng gullab-yashnagan davrlaridan biri bo'lgan bu davr (miloddan avvalgi IV-milodning I asrlari)ga oid savdo-sotiq markazlari juda ko'plab o'rganilgan bo'lib, ulardan topilgan arxeologik buyumlar hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanganligini yaqqol ko'rsatadi. Bozorqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ko'narliqal'a, Jonbosqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Katta Oybo'g'irqal'a, To'qqal'a, Kaparas, Katta Guldursun, Qal'ajik, Qirqqiztepa, Ko'naqal'a, Hazorasp, Tuproqqal'a (Shovot), Tuproqqal'a (Xiva tumanida), Oqtepa, Kat (Shovot tumanida), Tuproqqal'a (Yangiariq tumanida) kabi savdo markazlaridan tashqari, bu davrga oid shaharlar juda ko'p bo'lgan. Yuqoridagi ta'kidlanganlar ichidagi eng yiriklari va mashhurlari bo'lgan. Bu yodgorliklardan topilgan turli-tuman bezak buyumlarining ko'pchiligi chetdan – Suriya, Misr, Shimoliy Qora dengiz bo'yi shaharlaridan keltirilgan. Buning ustiga bezak buyumlarining nihoyatda o'ziga xos turlari tanlab olingan bo'lib, bu hol xorazmliklarning yuksak didli, bu buyumlar tayyorlangan joylar esa Xorazmning tashqi mamlakatlar bilan savdo aloqalari nihoyatda keng bo'lganligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Buyuk Ipak yo'lining ish boshlashi Xorazmni ko'chmanchilar va o'troq aholi o'rtasidagi ilgarigidek bog'lovchi xalqa vazifasini yanada kuchaytirib, jahon ahamiyatiga molik savdo markazlaridan biriga aylanishiga olib keldi. Bu iqtisodiy taraqqiyot keyingi I-IV asrlarda ham, ya'ni Xorazm Kushon imperiyasi tarkibiga qirgach ham davom etdi. Bu taraqqiyotning qay darajada bo'lganligini shu davrga oid Tuproqqal'a, Ayozaqal'a, Anqaqal'a, Gaurqal'alardan topilgan buyumlar ham tasdiqlaydi. IV asrda Xorazm Kushon davlatidan ajralib chiqib, bu yerda 305 yilda

Afrig' afrig'iylar-xorazmshohlar sulolasiga asos soldi. Bu sulola X asrgacha yashadi. Afrig'iylar sulolasining ilk vakillari Xorazmni ilgarigidek jahondagi birinchi darajali davlatlar qatoriga olib chiqishga ko'p uringanlar. Ular Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy savdoni o'z qo'liga olishga harakat qilganlar. Ammo IV asrda xunlar boshlab bergan "xalqlarning buyuk ko'chishi" bu jarayonga to'sqinlik qilgan. Xorazm ham "xalqlarning buyuk ko'chishi" jarayonidan chetda qolmagan. Xorazmda butun xo'jalik, ijtimoiy tuzum, turmush va siyosiy hayotning keskin suratda o'zgarib ketishiga olib kelgan bu jarayon IV asrdan e'tiboran borgan sari jadallasha boshladi.

Chap qirg'oq Xorazmning Sariqamish soyligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, uning g'arbiy chegara qismida miloddan avvalgi VII asrdan milodiy V asrlargacha bo'lgan davrda yashagan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi axoliga mansub ko'plagan yodgorliklar topildi. Bu yodgorliklardan topilgan turli xil buyumlar, ularda yashagan axolining Xorazm voxasi bilan keng ko'chmanchilar dunyosi o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida katta rol o'ynaganligi, shuningdek Xorazmning harbiy tayanchi bo'lganligini ko'rsatadi. O'sha buyumlarning sifatiga qaraganda, bu markaz o'z ehtiyojini qondirishdan tashqari, chetga ham mol chiqargan va bu orqali Xorazmning ham ko'chmanchilar bilan savdosidagi ehtiyojini qondirgan. Ammo V asrda Sariqamish bo'yi Amudaryo deltasi oqimining to'xtab qolishi bilan bu savdo markazlari o'z faoliyatini to'xtatgan.

Miloddan avvalgi IV-III asrlardayoq ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdoning asosiy yo'llarini nazorat qiluvchi – Devkeskan, Oybug'urqala kabi chegara qal'alari mavjud bo'lib, yangi davrgacha bu yo'llar hyech qanday o'zgarishsiz faoliyat yuritgan. Natijada bu chegara qal'alari o'ziga xos savdo markazlariga aylanganlar⁵³.

Xorazmning G'arbiy va Janubiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalari hali Xorazmda hind-yevropa til oilasiga mansub xalqlar shakllanmasdan oldin

⁵³ Вайнберг Б.И. Роль кочевников в развитии экономики и торговли Хорезма в древности. Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. с.31-32.

mavjud bo'lganligi to'g'risida taxminlar bor. Miloddan avvalgi II va I ming yilliklarda xorazmliklarning Qora dengiz bo'ylarida yashagan frak-kimmeriy qabilalari bilan aloqalarining mavjud bo'lganligini S.P.Tolstov etnografik, lingvistik va onomastik dalillarga suyanib, to'la bo'lmasa ham, ochib bergan edi. U bu aloqalar ancha keyingi davrlargacha davom etganligini ham ko'rsatib o'tgan edi⁵⁴. Arxeologlar arxeologik qazish ishlari natijasida Markaziy Osiyo hududidan topilgan ba'zi madaniy yodgorliklar, ayniqsa, Xorazm va Janubiy Sug'd haykaltaroshligi namunalarining etrusk madaniyatining shu sohasiga oid namunalariga juda o'xshashlik mavjudligini ta'kidlaydilar, bu o'xshashlik faqat o'sha qo'hna aloqalar ta'siridagina bo'lishi mumkin⁵⁵. Bu aloqalar, yuqorida ta'kidlanganidek Xorazmning Ahmoniyar davlati tarkibiga qirgach, yanada gavjumlashdi. Chunki bu davlat tarkibiga qirishi Xorazmni bevosita Yunoniston bilan chegaradosh qilib qo'ygan edi. Yevropa bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Markaziy Osiyoda yunon-makedon hukmronligi o'rnatilgach, qizg'in olib borilgan.

Iskandar Zulqarnaynning Baqtriya va So'g'diyonani bo'ysundirib, Spitamen qo'zgonini bostirish bilan band bo'lib turganda, miloddan avvalgi 329-328-yillarda uning Marokandadagi muvaqqat qarorgohiga Xorazmshoh Farasman keladi. Farasman Iskandarga agar unga Qora dengiz sohillaridagi kolxlar va amazonka qabilalarini bo'ysundirishda yordam bersa, u ham Iskandarga harbiy yurishlarda yordam berajagini bildirgan. Agar Farasmaning fikriga ishoniladigan bo'lsa, o'sha davrda Xorazmning ta'sir doirasi Qora dengiz bo'ylarigacha yetib borganligini ko'rishimiz mumkin. Gutshmid va Bartold singari mashhur Sharqshunoslar bu qo'shniqlik Xorazmning hukmronligi Sharqiy Yevropaning janubiy-sharqiy burchagigacha yetganligidan dalolat beradi, deb hisoblaydilar⁵⁶. Buni arxeologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Sirdaryoning Orol dengiziga quyuvchi irmoqlaridan biri Quvandaryo havzasida tavor-dax ko'chmanchilarga mansub Jetiosor yodgorliklari kompleksida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu yodgorliklardan topilgan sopol buyumlar Markaziy Osiyodagi hеч bir

⁵⁴ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 94-бет.

⁵⁵ Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. С.244.

⁵⁶ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. 144-145-бетлар.

yodgorlikda (Xorazmdan tashqari) uchramaydiki, ular ko'proq, Ukrainaning "skiflardan oldingi" madaniyatiga va Dunay-Galshtatt madaniyatiga xos uslubga juda o'xshaydi⁵⁷. Bu mazkur madaniyatlarning qizg'in iqtisodiy aloqalarda bo'lib turganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi III-II asrlar davomida Markaziy Osiyoga yunon madaniyati qirib kelishi, ya'ni ellinizm jarayonining tarqalishi ham shu savdo aloqalari ta'sirida ro'y bergan albatta. Shu davrlarga oid Xorazm yodgorliklaridan Qora dengiz bo'yi hududlaridan qirib kelgan turli xil buyumlarning topilishi ham fikrimiz dalilidir.

Yevropa bilan Xorazmning savdo aloqalari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi bilan juda taraqqiy qilib, yangi bosqichga ko'tarildi.

Miloddan avvalgi II asrda Buyuk Ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i Xorazm orqali Qora dengiz bo'ylariga, undan Yevropaning boshqa hududlariga o'tgan. Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a va Bozor qal'adan topilgan har xil marjonlar Shimoliy Qora dengiz bo'yi hududlaridagi yunon shaharlaridan keltirilgan.

Yunon olimlari Gerodot va Ptolomeylar o'z asarlarida ko'rsatib o'tgan, Osiyoga olib boruvchi savdo yo'llari aynan Xorazmdan o'tganligi natijasida, yuqorida ko'rsatib o'tgan buyumlar kelib qolgan bo'lishi mumkin. Buyuk ipak yo'lining 3 ta yirik tarmog'idan birining kichik tarmog'i Xorazmni Kavkazorti orqali Qora dengiz bo'ylari, Yunon va Rim dunyosi bilan bog'lagan⁵⁸. Yunon geografi Strabon o'z asarida – “bu daryoda (Amudaryo va Uzboy) kema yura oladi va u orqali oqim bo'ylab ko'plab hind tovarlari Kaspiy dengiziga olib boriladi. Undan so'ng Albaniyaga (Kavkazortidagi), keyin Qir (Kura) daryosiga chiqilib, u orqali Pont Evksin (Qora dengiz)ga chiqilgan,” -deb ko'rsatib o'tgan edi⁵⁹.

Rim tarixchisi Pliniy ham xuddi shunga o'xshash ma'lumotni keltirib o'tadi. U: –“Oks daryosi orqali Kaspiy dengiziga va undan so'ng Kura daryosiga

⁵⁷ Ўша жойда. 117-бет.

⁵⁸ Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. С.29.

⁵⁹ Ўша жойда. С.22.

keltirilgan hind tovarlari besh kunlik quruqlik yo'li orqali Fasis (hozirgi Rion)ga olib kelingan”⁶⁰.

Xorazm tarixining keyingi davri, Kushon davri ham, Xorazmning Yevropa bilan savdo-sotiq aloqalarining rivojlangan davri bo'lib, Xorazm ulkan Kushon imperiyasining bir bo'lagi bo'lishidan tashqari uni Yevropa bilan bog'lovchi xalqa ham edi.

Kushon elchilari 99 yilda va 200-yillarda Rimda bo'lishgani holda, rimlik May Tisian Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga borgan.

Kushon tangalarining Rim davlati hududlarida va hatto juda uzoq Skandinaviya hududidan topilishi, Kushon hududidan esa Rim tangalari va rim ustalari yasagan turli-tuman buyumlarning topilishi, bu davrda savdo sotiq aloqalarining qay darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Bu savdo-sotiq aloqalarida Xorazm ham chetda qolmagan, albatta. Kushon davlatining Sharqiy Yevropa bilan aloqasida Xorazm juda ulkan rol o'ynagan. Kushon imperiyasi qulagandan keyin, Xorazmda afrig'iylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgach, Xorazmda boshlangan iqtisodiy–ijtimoiy inqiroz savdo–sotiq aloqalariga kuchli ta'sir qilib, endi bu aloqalar ahyon–ahyonda bo'lib turgan bo'lsa kerak. Chunki endi bu davr yodgorliklaridan Sharqiy Yevropa va Qora dengiz bo'ylaridan keltirilgan buyumlarni juda kam uchratamiz. Shunday bo'lsa ham, arxeologik ma'lumotlar V asrgacha, ya'ni Uzboy qurib qolguncha u orqali Kavkaz va Qora dengiz bo'ylari bilan savdo-sotiq aloqalari mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi⁶¹.

1937-1990 yillar mobaynida va mustaqillikdan keyin olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, Xorazmning Sharqiy Yevropa xalqlari bilan olib borgan savdo aloqalari to'g'risida juda katta miqdordagi dalillar, ma'lumotlar to'plandi. Bu bizga, o'z navbatida, savdo aloqalarining ba'zi yo'nalishlarini va umumiy holatdagi xususiyatlarini to'liq aniqlab olish imkonini beradi.

Xorazm kulolchilik buyumlari, Janubiy Uralbo'yidan tortib to Boshqirdistongacha bo'lgan hududdagi miloddan avvalgi IV-II asrlarga oid

⁶⁰ Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. С.22.

⁶¹ Ртвеладзе Э. Великий Шелковый путь. С.23.

yodgorliklarida uchratilgan. Janubiy Uralbo'yi'dagi miloddan avvalgi II asrga oid qo'rg'onlaridan ham Xorazmga oid sopol buyumlar topilgan. Boshqirdiston hududidan milodiy VII-VIII asrlarga oid Xorazm tangalari ham topilgan. Kamabo'yi hududlaridan esa III-VIII asrlarga tegishli Xorazm kumush tangalari topilgan. Sharqdan (Sharqiy Turkiston chegarasidan) g'arbga yirik ko'chmanchi qabilalar ko'chib yurgan Qozog'iston va Janubiy Uralbo'yi dasht va o'rmon-dasht hududlari orqali Xorazm hunarmandchilik buyumlari hatto uzoq shimoli-sharqqa ham borib qolgan. Omsk hududidagi Irtish daryosi bo'ylaridan miloddan avvalgi III-II asrlarga tegishli xorazmiy yozuvli kumush va sopol idishlar topilishi buning yaqqol isbotidir.

Miloddan avvalgi II asrda Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi bilan Xorazmning Sharqiy Yevropa bilan savdo aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i vujudga kelib, u Xorazm savdo shaharlari orqali o'tardi.

Milodiy II asrda yashab o'tgan mashhur yunon geografi Ptolomeyning "Geografiya" asarida ham bu yo'l to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lib, unda muallif Azov dengizidan boshlanib, Quyi Volgabo'yi dashtlari va Xorazm orqali janubi-Sharqqa tomon o'tuvchi yo'l to'g'risida yozib o'tadi⁶².

Bu davrda Sharqiy Yevropa xalqlari bilan bo'lgan savdoda savdoning hajmi, Xorazmga keltirilgan va olib ketilgan narsalar turi uzoq vaqt davomida o'zgarmagan bo'lsa kerak. Savdo, aynan, bir xil xo'jalik uslubi shakllangan va uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz rivojlangan hududlar bilan olib borilgan. Shu sababli diqqatimizni bir narsaga qaratishimiz lozim. Chunonchi qul savdosini olib ko'radigan bo'lsak, qullar savdosi faqat o'rta asrlardagina emas, balki to Rossiya istilosigacha Xorazm iqtisodida katta rol o'ynagan. Bu holat, ayniqsa, qulchilik tizimi hukmronlik qilgan davrda Xorazmga ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdoda keltirilgan qullar mehnatidan foydalanish, dehqonchilikning, hunarmandchilikning rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

⁶² Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма... с.44.

XULOSA

XX asrning 30-yillariga qadar ilk temir davri tarixi faqat yozma manbalarga tayangan holda o'rganilgan edi. Shu asr 30-40-yillarining oxirlarida O'rta Osiyoda ilk temir davri muammosining o'rganilishi tarixi, adabiyotlardagi mavzuga oid yondashuvlar dastlab tahlil qilingan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab, ayniqsa, 50-80-yillar davomida O'rta Osiyoning barcha viloyatlarida keng arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilib, bronza, ilk temir davri tarixiga oid ma'lumotlar to'plangan va fanga joriy etilgan. Aynan shu yillarda ilmiy axborot doirasining kengayishi tufayli ilk davlatchilik va shaharsozlik madaniyatining arxeologik belgilarini ishlab chiqishga asos solingan. Bundan avval G'arb va sovet tarixshunosligida mavzu faqat yozma manbalarga tayangan holda o'rganilgan edi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar yozma manbalar bilan taqqoslangan. Manbashunos va qadimshunos olimlarning nashrlarida qadimgi oila va uning tarkibi, urug' va hududiy qo'shniçilik jamoasi, qabila va qabilalar birlashmasi, boshqaruv tartibi kabi masalalar yoritilgan.

XX asr tarixshunosligida bronza va ilk temir davri ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruv tizimiga oid "Avesto"da mavjud ma'lumotlar keng o'rganilgan. Boshqaruvga oid "nmanopati", "vispati", "zantupati", "daxiyupati", siyosiy institutlar va davlatchilik tizimiga tegishli – "sastar", "kavi", "daxiyusasti", "xshatra", hokimiyat ramzi va hukmdorning shon-shuhrati va ulug'vorligini aks ettiruvchi – "farra" yoki "xvarno" kabi atamalar, shular jumlasidandir.

Sobiq sovet davri tarixchi olimlari ilk temir davri muammolarini o'rganish paytida shu davr hukmron mafkurasi talablarini amalga oshirishga majbur edilar. Markscha uslubiy yondashuv va nazariya doirasidan chiqib, davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning ko'p xilligiga asoslangan holda tadqiqotlar olib borish sovet davrida mushkul bo'lib, mavzuni yoritishda to'siqlar yaratgan. Quldorlik davlati – davlatchilikning birinchi shakli deb e'tirof etilgan edi.

G'arb tarixshunosligida ham mintaqadagi ilk temir davri masalasiga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, XX asrning 90-yillariga qadar xorijiy

tadqiqotchilarga yozma manbalardan tashqari O'rta Osiyo arxeologiyasi ma'lumotlaridan beistisno foydalanish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, ularning asarlarida mavzu bo'yicha muammoli yoki noto'g'ri yoritilgan masalalar ko'rsatib berilmagan. Bundan tashqari, G'arb adabiyotlarida O'rta Osiyoning qadimgi tarixi asosan Sharqiy Eron tarixi sifatida yoritilgan. Masalaga ana shunday yondashuv ayrim noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga olib keldi.

XX asrning 90-yillarida mazkur mavzuni o'rganishda yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi tufayli sovet davri tarixshunosligidan meros qolgan sinfiy nazariya yangi tadqiqotlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bilan birga, ayrim manbashunos va qadimshunos olimlarning nashrlarida davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalarning ko'p xilligiga o'z e'tiborini qaratish zarurati, bu muammoni o'rganish va yechish faqat sinfiy nazariya bilan chegaralanmaganligi ta'kidlandi.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlarida ilk temir davri tarixini qayta ko'rib chiqish va yangi asoslarda yoritish jarayoni bir-birlaridan ajralgan holda boshlandi.

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixshunosligi doirasida ilk temir davri tarixi asl manbalarga tayangan holda, fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak bo'lgan mavzuga noxolis yondashuv paydo bo'ldi. Ayrim qo'shni davlatlarda o'z xalqining davlatchilik tarixi mintaqadagi eng qadimgi voqyea sifatidagi nazariyalarni va etnik tanlanganlik g'oyasini keng targ'ib qilish, sun'iy ravishda haqiqat darajasiga ko'tarish uslublari vujudga keldi. Bu yo'nalishdagi maqola va monografiyalarda, tarixning ilmiy jihatdan murakkab voqyea-hodisalarni tarixshunoslik talablariga, qiyosiy tahlil uslubiga asoslanishi lozimligi va haqqoniy tarixni yoritish usulidagi yondashuv chetlab o'tildi.

Hozirgi kunga kelib ilk temir davrining muammolarining o'rganilishida quyidagi munozarali masalalar mavjud:

– O'rta Osiyoda davlatchilikning shakllanish omillari va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari mavzusi, bu borada davlatlarning tarkib topishida siyosiy va huquqiy omillarning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan;

- qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, davlat va boshqaruvning rivojlanib borishi, oʻzaro bir-biriga bogʻliqligi masalasi;
- davlat vujudga kelishidan avval mintaqadagi qadimgi jamoalarning ijtimoiy boshqaruvi xususiyatlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy omillarga asoslangan kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi muammosi;
- Oʻrta Osiyoda “ilk davlatchilik” tushunchasi, uni rivojlanishining tarixiy davrlashtirilishi, qadimgi davlatlar turlari va boshqaruv shakli, siyosiy va huquqiy munosabatlar.

Oʻrta Osiyodagi bronza va ilk temir davri boshqaruv tizimi qanday shakllardan iborat boʻlganligi masalasi tarixda hanuzgacha aniq yechimiga ega emas. Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda, Qadimgi Sharqda davlatlarning shakllanish xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari singari Oʻrta Osiyoda ham yaqin tarixiy sharoitda davlatlar tarkib topganligi taʼkidlanadi. Shu nuqtai nazardan mintaqadagi ilk davlatlar “nom” turidagi yoki “shahar-davlatlar” hamda “voha-davlatlar” tushunchalari bilan bogʻlanadi. Lekin ushbu tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va izohi borasida qadimshunoslar oʻrtasida ilmiy bahslar mavjud.

Qadimgi Sharq hududlariga nisbatan Oʻrta Osiyoda davlatlar biroz kech vujudga kelgan. Mintaqaning bronza davri tarixiga tegishli yozma manbalar mavjud emas. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, hunarmandchilik va qishloq xoʻjalik mahsulotining miqdori, uning ishlab chiqarilish darajasi arxeologiya maʼlumotlariga asoslanib oʻrganiladi. Lekin ushbu maʼlumotlar toʻliq emas, shuning uchun ham qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi yuzasidan maʼlum holatlarda nisbiy xulosalar chiqarilgan.

Boshqa dolzarb muammo – Oʻrta Osiyoda ilk temir davri (mil. avv. VIII-VI asrlar) “voha-davlatlar” toʻgʻrisidagi gʻoya boʻlib, yaʼni mintaqaning kichik vohalarini egallab turgan shaharlar atroflaridagi davlatlar haqidagi xulosadir. Bronza davriga nisbatan ilk temir asrining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarida ancha oʻzgarishlar sodir boʻlganligini inobatga olgan holda, yuqorida keltirilgan xulosa bahslidir. XX asr tarixshunosligining maʼlumotlariga koʻra, mil.

avv. VIII-VI asrlarda O'rta Osiyoda hududiy nisbatan yirik davlatlar (Baqtriya, Xorazm hamda yangi dalillarga ko'ra – So'g'd) paydo bo'lgan.

Xorazm davlati XX asrning 80-yillariga qadar mintaqadagi eng qadimgi davlatlar deb kelingan. Keyinchalik, ular O'rta Osiyo davlatchiligi tarixining davrlashtirilishidagi uchinchi bosqichga tegishli davlatlar sifatida talqin qilindi.

Umuman olganda, XIX asrning ikkinchi yarmi, XX-XXI asr boshlari tarixshunosligidagi ko'plab nazariyalar va yondashuvlarning izohida unga tanqidiy baholar berish, ayniqsa, "sinfy" nazariyadan voz kechish bilan birga, ayrim yondashuvlar va tadqiqotlarning ijobiy jihatlarini ajratib ko'rsatish lozim.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Каримов.И.А Хива шахрининг 2500 йиллигига боғишланган симпозиумда сўзлаган нутқи. // Халқ сўзи, 1997.
2. Каримов.И.А Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., Шарқ, 1998.
3. Каримов.И.А Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. - Т., Ўзбекистон, 1999.
4. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Т., O'zbekiston, 2008.
5. Асқаров А. Ўрта Осиёнинг қадимги давр хусусиятлари.- Т., //ЎИФ, №6. 1994.
6. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар. Илмий тўплам. Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. – Т., 2004.
7. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большоков О.А. Средневековый город Средней Азии.- М.-Л., Наука, 1973.
8. Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры. //Кн. Кочевники на границах Хорезма.- М., Наука, 1979.
9. Воробьева М.Г., Вактурская Н.Н Хроника работ Хорезмской экспедиции Академии Наук СССР. // ТХАЭЭ., Т-1,- М., Наука,1952.
10. Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е. Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958 – 1960 гг. – М., Наука, вып – 6, 1963.
11. Воробьева М.Г. Дингильджа. Усадьбы – I тыс-я до. н.э в древнем Хорезме.- М., Наука, 1979.
12. Вишневская О. А. , Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем эпохе истории Хорезма.- М., Наука, ВДИ, №2, 1997.
13. Гертман А. Н. Строительная техника древнего Хорезма. Автореф.кан. дисс.- М., 1989.
14. Гудкова А.В. Токкала.- Т., ФАН, 1964.
15. Гуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., ФАН, 1959.
16. Завьялов В.А. Калъажикда археологик тадқиқотлари натижаси юзасидан хисобот. – Хива, 1991.

17. Итина М.А. Древности южного Хорезма.- М., Наука, 1991.
18. Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Раскопки Барактама-1 в 1956. // МХЭ, № 1.- М., Наука, 1959.
19. Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город местные традиции и иноземные модели. Древний Восток. Города и торговля (III-I тыс. до н.э.)- Ереван, 1973.
20. Мамбетуллаев М., Кдырниёзов М-Ш. Городище Воянган.// В кн. Археология Приаралья. - Т., Фан, Вып. №1. 1982.
21. Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э.- IV в. н.э.).// Автореф. док.дисс. – Т., 1994.
22. Манилов Ю.П., Мамбетуллаев М., Юсупов Н. Городище Мешекли-памятник средневекового Хорезма. // Вестник ККФ АН УзССР, № 1, 1966.
23. Манилов Ю.П. Гордище Кят. // ОНУ, № 7-8.- Т., Фан, 1973.
24. Манилов Ю.П., Хожаниязов Г. Городище Аязқалға –1 и Бурлықалға (к изучению фортификации древнего Хорезма). // Археологические исследования в Каракалпакии.- Т., Фан, 1981.
25. Манилов Ю.П. Городище Аязқалға-2 Уникальный памятник раннесредневекового Хорезма. // Кн. Археология Приаралья.-Т., Фан Вып.2, 1984.
26. Манилов Ю.П., Кдырниёзов М-Ш. Городище Жампыккаёла. // Кн. Археология Приаралья.- Т., Фан, Вып.2, 1984.
27. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргиани. // МИА, № 73.- М., Наука, 1959.
28. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.).- М., Наука, 1976.
29. Пьянков И.В. Хорасмия Гекатея Милетского. // ВДИ, № 2.- М., Наука, 1972.
30. Рапопорт Ю.А., Вишневская О.А. Городище Кюзелигир. // ВДИ, № 2.- М., Наука, 1997.

31. Сабиров К. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Средней Азии(VI- тыс- я до. н. э. – IV в. н. э.).// Автореф. кан дисс.- М., 1979.
32. Толстов С.П. Древний Хорезм.- М., Наука, 1948.
33. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.- М., Наука, 1962.
34. Хожаниязов Г. Фортификация древнего Хорезма.//Автореф. кан.дисс. – Нукус, 1996.
35. Ширинов Т. Древнебактрийское царства, Большой Хорезм. // Очерки по истории государственности Узбекистана.- Т., Шарк, 2001.
36. Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левой бережной части Приаральской дельты Амударьи. // МХЭ, Вып.3.- М., Наука, 1963.